

# KITOBIM- OFTOBIM

1



B. MA'QULOVA, T. ADASHBOYEV

# KITOBIM — OFTOBIM

## 1- SINF UCHUN

SINFDAN TASHQARI O'QISH KITOBI

*O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tasdiqlagan*

TOSHKENT „O'QITUVCHI“ 1996

# 1- mashg'ulot.

## BAXTLI BOLALIK QO'SHIQLARI.

### MAKTABIM.

*Qaldirg'och Sobirova.*

Salom, ona maktabim,  
Keldim men quchog'ingga.  
Mehr qo'yib tingleyman  
Bergan har sabog'ingga.

Salom, ona maktabim,  
Bosh egaman poyingga.  
Dilim tashna ilmga,  
O'qish-menga qoida.

Salom, ona maktabim,  
O'rganib, olim bo'lay.  
Xizmat qilib elimga,  
Quvonch-u zavqqa to'lay.

## TEZROQ YANGRA, QO'NG'IROQ!

*Abdusaid Ko'chimov.*

Biz dunyoda eng quvnoq,  
Eng baxtiyor bolamiz.

Tezroq yangra, qo'ng'iroq,  
Biz mакtabga boramiz.  
Ko'п harflarni o'rgandik  
Bog'chamiz quchog'ida.

Endi ta'lim olamiz  
Maktab — fan quchog'ida.  
O'qiyimiz faqat beshga,  
O'ynaymiz quvnab, kulib.  
Va o'samiz Vatanga  
Munosib farzand bo'lib.

## SENTABR QUYOSHI.

*Abdurahmon Akbar.*

Ko'zlarimni quvnatar  
Munis tongning jamoli.  
Onam kabi sochimni  
Silar kuzak shamoli.

Ukam ham shod mendayin,  
Qo'limizda gulgasta.

Maktab darvozasiga  
Yetsak deymiz bir pasda.  
Qushlar bizga ergashar,  
Qari tutlar cho'zar qo'l.

Orqada qola boshlar  
Dała ichidagi yo'l...  
Omad tilar ariqcha,  
Omad tilar keng olam.  
Ko'zin uzolmas bizdan  
Ochilgan paxtalar ham...

„YAXSHILIK“.

*Safar Barnoyev.*

Ukajonim yotib qoldi  
isitmalab,  
— Nima bo'ldi? — dedim  
unga, — boshin silab.  
— Aka, — dedi, —  
ketayapti ichim yonib,  
Ko'zlarimga tikildi u  
tashvishlanib.  
Yig'ib qo'ygan tangalarim  
esga tushdi,  
Ichi yonib ketmasin deb

yo'lga tushdim.  
Yelib borib olib keldim  
muzqaymoqdan,  
Yalab yotdik u bir yoqdan,  
men bir yoqdan.  
Oyijonim buni ko'rib  
shoshib qoldi,  
Achchig'idan o'zin zo'rg'a  
qo'lga oldi.  
Ukamni tez ko'rpasiga  
o'rab qo'ydi,  
So'ngra mening qulog'imni  
burab qo'ydi.

## KITOB.

*Isroil Saidkarimov.*

Sen bilan butun umrim  
Chambarchasdir kitobim.  
Ardoqlayman doimo,  
Eshit, shundoq xitobim.

Sen oftobsan, nuringdan,  
Charog'ondir bu ongim.  
Seni o'qib, o'rganib,  
Nurafshon bo'lar tongim.

## 2- mashg'ulot.

### BOLALAR HAQIDA HIKOYA VA ERTAKLAR.



#### SIRLI SO'Z.

*Turg'unboy G'oyipov.*

Olimjon degan bolaning boshidan kechirganlarini gapirib bermoqchiman.

U ko'chada bir kampirni jo'rttaga turtib ketibdi. Kampir xafa bo'lib: — O'g'lim, muncha qo'polsan?— desa, Olimjon:— O'zing qo'pol!— debdi to'ng'illab. Bir oz vurgach. yana bir cholni turta-turta

tramvayga chiqibdi-da, bo'shagan o'ringa darrov o'tirib olibdi.

Boyagi chol esa hassasiga suyanib, nariroqda tikka turaveribdi. Hamma uning odobsizligini bilib qolibdi. Biroq u o'ziga tikilganlarga parvo qilmabdi.

Shunday qilib, Olimjon "beodob bola" deb nom chiqaribdi.

O'rtoqlari ham kamaya boshlabdi, nihoyat, bir o'zi qolibdi. Qo'shnisi Sobirjonga:

— Kinoga birga boraylik,— debdi u.

— Oyim ham, otam ham odobsiz bola bilan yurma deganlar,— deb javob beribdi.

Olimjon sinfdoshi Anvarnikiga boribdi. Unga cho'milish uchun ko'lga birga borishni iltimos qilsa, u:

— Sening kasaling yomon, yuqumli emish, men sen bilan yurmayman endi,— debdi.

Olimjon juda xafa bo'libdi, qanaqa kasalim bor ekan, deb shifoxonaga borsa, o'sha chol bosh vrach ekan.

— Bilaman kasalingni,— debdi u. — Sen o'qituv-chilarining so'ziga, o'zingdan kattalarning so'ziga kirmaydigan qaysar bolasan. Maslahat beraman, agar aytganimni qilsang, sog'ayishing mumkin.

Olimjon shunda: „Aytganlaringizni, albatta, bajaraman“,— deb qattiq va'da beribdi.

— Kasalxonada yotamanmi? — debdi Olimjon.

— Yo‘q, — debdi bosh vrach, — bunaqa kasallarni kasalxonaga ham yotqizishmaydi, kasallarga ham yuqishi mumkin-da.

Shifokor shunday debdi-yu, dori yozib beribdi.

— Shunga rioya qilsang, kasaling ham tuzaladi, do‘srlaring ham sendan xazar qilishmaydi, — debdi.

Olimjon dorixonaga yuguribdi. Biroq dori beradigan oppoq xalatli ayol:

— Bu dorini faqat o‘zing tayyorlashing mumkin, — debdi.

Olimjon o‘qib qarasa, vrach „Odobli bo‘lish kerak“ deb yozgan ekan.

### YASHIRILGAN QIZ.

*Turg‘unboy G‘oyipov.*

Bir dehqonning oilasida qiz tug‘ilibdi. Uning avval farzandi bo‘lmagan ekan. Ota-onan yakkayu yagona qizini sog‘lom o‘stirmoqchi bo‘libdilar.

— Qizimning kelajagi qanday bo‘larkin? — deb o‘ylabdi dehqon kunlarning birida. U soddadil va xurofotga berilgan ekan. Fol ochirib bilmoqchi bo‘libdi.

Folchi aldab-suldab dehqondan ko‘p pul olib, kissasiga solgach, vaysay boshlabdi:

— Qizingning boshida katta xatar bor. Bundan

saqlanish uchun uni hech kimga ko'rsatma, ko'z tegadi. Suv yoniga yo'latma, qora dev uradi, qabriston yoniga yuborma, jin aftini qiyshiq, qaddini bukri qilib qo'yadi. Qizingni ko'chaga chiqarma, oftob uradi, yurgizma — oyog'iga tikan kiradi. Qizingni ana shulardan asra,— debdi folbin sodda dehqonni laqillatib.

Dehqon uyga kelib foichining so'zlarini xotiniga kuyib-pishib bayon qilibdi. Xotini ham eridan battar xurofotga berilgan ekan, bu gaplarga ishonibdi va qizini uyga kiritib, quyosh nurini ham ko'rsatmay qo'yibdi. Anorday to'lib o'ssin deb qizchaga Anorxon nomini bergen ekanlar. Lekin qiz sakkiz yoshga kirmasdanoq yuzlari sarg'ayibdi, bilaklari naychaday ingichkalashib, ko'zları xiralashibdi.

Qizning ahvoli tobora og'irlasha boshlagach, ona eri bilan maslahatlashibdi. Mashhur bir tabibni chaqirib kelib, uni ko'rsatishibdi. U ilm va tajribada bilarmon tabib ekan. Dono tabib bir qarash bilan qizchaning dardini ham bilibdi.

— Ey, shafqatsiz ota-on, qizingizni o'z qo'lingiz bilan o'lдirmoqchimisiz? — debdi u. — Nima uchun yolg'iz qizchangizning yorug' dunyodan, dalalardan, bog'lardan bahramand bo'lishiga yo'l · qo'ymaysiz? Nega uni foydali mehnatga o'rgatmaysiz?

Dehqon folchining so'zlarini aytgan ekan, dono tabib:

— Har kimning ko‘zi bor, yaxshi-yomonni ajratib, qadamini bilib bosishi kerak. Bir yolg‘onchi sizni halokatga yo‘llasa boraverasizmi? Quyosh nurisiz giyoh ham o‘sса olmaydi, odam o‘sса olarmidi? Qizingizni tez dalaga chiqaring. Atrofni ko‘rsating. Kelib ahvolidan xabar olib turaman,— debdi-da, jo‘nab ketibdi.

Qizchaning hovliga chiqishiga ruxsat beribdilar. Ona va qiz bog‘dan olma uzibdilar. Toza havo va mehnat qizchaning ishtahasini ham ochib yuboribdi, u ovqatni ishtaha bilan yeb, sog‘aya boshlabdi. Undan xabar olgani kelgan tabib quvonibdi. Dehqon unga minnatdorchilik bildirib:

— Siz qizimni o‘lim changalidan qutqardingiz,— desa, tabib: „Qizingizni men emas, mehnat, toza havo, quyosh o‘limdan qutqardi“,— deb · javob beribdi.

## KOPTOK.

*Mahmud Murodov.*

Odil ko‘chadan o‘tib borardi. Yo‘lda janjallashib turgan ikki bolaga duch kelib qoldi. Ular yarmi qizil, yarmi ko‘k koptokni yulqilashib ikki tomonga tortishardi.

— Bu mening koptogim. Mana, ko‘rib qo‘y, qizil tomoniga "Qo" deb ham yozib qo‘yganman, tunov

kuni Ahmad bilan futbol o'ynab turganimizda devordan hovlingga tushgan edi,— dedi birinchi bola.

— Hovlini kirib qaradingmi o'shanda yo qaramadingmi?

— Qaradim, topolmadim.

— Yolg'on, — dedi ikkinchi bola, keyin Odilga qarab, - - katta koptok tusharmishu topolmasmish, gapini qarang. Bu mening koptogim. "Qo" ni o'zim yozib qo'yganman,— dedi.

Odil surishtirsa, birinchi bolaning ismi Qobil, ikkinchisiniki Qodir ekan. Odil koptok kimnikiligini aniqlash uchun qancha urinmasin, bilolmadi. Har ikki bola ham „Koptok meniki“ deb turib oldi. Shundan so'ng Odil nima qilarini bilolmay o'ylanib qoldi va qo'qqisdan cho'ntagidan qalamtaroshini oldi-da:

— Koptokni ikkalang ham meniki deyapsanlar. Unday bo'lsa, pichoq bilan ikkiga bo'lib beraman,— dedi.

— Mayli bo'lib beravering,— dedi Qodir beparvolik bilan.

Qobil esa Odilning qo'liga yopishib olib:

— Yo'q, bo'lmanq. Koptokni Qodir ola qolsin, birga o'ynab yuramiz,— deb yalindi.

Shundan so'ng Odil koptokni Qobilga uzatdi-da:

— Mana, ol, koptok seniki ekan,—dedi.  
Qodir churq etolmay qoldi.

## ENDI QUVMAYDI.

*Mahmud Murodov.*

Gulnoralarning tovug‘i jo‘ja ochgan edi. Ular avvaliga do‘mboqqina, sap-sariq bo‘lishdi. Keyin asta-sekin qanot chiqarib, yana ham yoqimtoy bo‘lib qolishdi. Shunda Gulnora ulardan eng chiroylisini tutib olmoqchi bo‘lgan edi, ona tovuq qanotlarini surpaytirib, "qurt-qurt, qurt-qurt", deganicha Gulnoraga qarab yugurdi. Gulnora qarasa, tovuq cho‘qib oladigan. U qochdi. Shu-shu tovuqlarni yomon ko‘rib qoldi. Ba’zan qo‘liga tayoq olib tovuqni quvadigan odat ham chiqardi.

Bir kuni kechki ovqat paytida Gulnora lag‘mon solingan kosani itarib qo‘yib:

- Oyijon, tuxum pishirib bering,— dedi.
- Tuxum yo‘q, bolam,— dedi onasi.
- Tovuq tuxum bermadimi?

— Bermadi, qizim. „Gulnora menga don sochish o‘rniga tayoq bilan quvlayveradi, tuxum bermayman“— dedi.

Gulnora churq etmadi. Hovlida yurgan tovuqqa ko‘z qirini tashladi-da, kosani oldiga surib, lag‘monni yeb oldi.

Kechqurun Gulnora o‘rniga yotdi-yu, uzoq vaqt uxlay olmadi.

— Nega uxlamayapsan?— deb so‘radi undan xabar olgani xonaga kirgan onasi.

— Yostiq qattiq ekan, botayapti,— dedi Gulnora bahona qilib.

Onasi par yostiq keltirdi.

Gulnora boshini qo‘ysa, biram yumshoq, biram yumshoq.

— Oyijon, bu yostiq nega yumshoq?

— Pardan qilingan, qizim.

— Parni qayerdan olinadi?


— Gulnoraning boshi yumshoqqina yostiqda yotsin, deb tovuqlar bitta-bittalab to‘plashgan,— dedi onasi.

— O‘sha beschäftiga o‘xshagan tovuqlar-a?

— Ha...

Gulnora boshqa savol bermadi. Ko‘zini chirt yumib uxbab qoldi.

Gulnora tushida tovuqlar u jo‘jalarga don sepib, atroflarida parvona bo‘ldi.



## SAMOLYOT YEGAN BOLA.

*Mahmud Murodov.*

Bir Xo'ran degan bola bor ekan. U har narsani og'ziga solaverarkan. Bir gal og'zidagi tugmachani yutib yuborib toza to'polon bo'lgan ekan. Shuning uchun ota-onasi unga hech o'yinchoq olib berishmas, ba'zan olishsa ham, baliq, xo'rozqand, nonga o'xshash yesa bo'ladigan narsalar olib berisharkan.

Bir kuni Xo'ran dadasi bilan shahar aylanganda o'yinchoqlar do'koniga kirib qolishibdi. Xo'ran o'yinchoq samolyotni ko'rib qolibdi-da, „olib berasiz“, deb xarxasha qilibdi.

— Senga bu o‘yinchoq bo‘lmaydi,— debdi dadasi. Lekin Xo‘ran xarxasha qilaverib, axir oldiribdi. Xo‘ran samolyotni uch kun o‘ynabdi. To‘rtinchi kuni ko‘chadan o‘yinchoqsiz quruq qaytibdi.

— Samolyoting qani?— deb so‘rabdi dadasi. Bola boshini egib indamabdi.

— Samolyoting qani, deyapman!— debdi yana dadasi xavotirlanganidan balandroq ovoz bilan.

— Yeb qo‘ydim.

— Voy o‘lmasam!— deb qichqirib yuboribdi onasi.— Endi nima qildik. Qani, og‘zingni och-chi! Och, og‘zingni!

Xo‘ranning og‘ziga qarashibdi.

— Voy, dadasi,— deb yig‘lab yuboribdi oyisi. — Tezroq shifoxonaga olib boraylik. Temir qornini teshib yuboradi. "Tez yordam" mashinasini chaqiring!

Dadasi tuflisini kiyayotib:

— To‘g‘risini gapir, nima qilding samolyotni!— debdi jahl bilan.

— Yeb qo‘ydim,— debdi Xo‘ran.

"Tez yordam" chinqirgancha bolani shifoxonaga olib boribdi. Bir doktor xola bolani taxta karavotga yotqizib, qornini sekin silab ko‘ribdi, bola indamabdi, qattiqroq ezibdi, bola indamabdi.

— Og‘riyaptimi?

Bola og'rimasa ham qo'rquvdan yig'lab yuboribdi.

— Ana, ana, og'ridi bolajonimning qorni, rentgenga tushiring, rentgenga, — yolvoribdi Xo'ranning onasi.

Xo'ran rentgen qilinadigan qorong'i uyga kirganda qo'rqqanidan battarroq yig'labdi. Rentgenda hech qanday samolyot ko'rinnabdi. Uyga qaytayotganda ota-onasi yana so'ray boshlashibdi.

— To'g'risini ayt, samolyotni rostdan yedingmi?  
— Yedim,— debdi Xo'ran yig'lamsirab.

Onasi jahl bilan Xo'ranning orqasiga bir shapati uribdi. Bola yig'labdi.

Shu vaqt ko'chada o'qituvchi qo'shnilaridagi duch kelib qolibdi va voqeadan xabar topibdi.

— Bolani urmay, qo'rquitmay so'rash kerak,— debdi-da, Xo'ranning boshini silab ohista so'rabi:

— Oppoq bolam, Xo'ranjon, qani ayt-chi, samolyotingni butun yutdingmi, buzib yutdingmi?

— Yutmadijam, buzmadijam.

— Qanday qilib yeding?

— Karimning koptogiga alishtirdim.

— Koptok qani?

— Salimning miltig'iga alishtirdim.

— Miltiq qani?

— G'aniga pirojniyga alishtirdim.

— Pirojnyi qani?

— Yeb qo'ydim,— debdi Xo'ran.

Shu yerga kelganda hammalari kulib yuborishibdi. Xo'ran ham, hech narsaga tushunmagan bo'lsa-da, chehrasi yorishib jilmayibdi.

## ERKINLIK.

*Xudoyberdi To'xtaboyev.*

O'tgan safar aytganimdek, bu voqealarga ellik yillarcha bo'lib qoldi, ehtimol undan ham ko'p bo'lgandir...

Bir kuni xo'jalik omborxonasining orqasida o'rtoqlarim bilan „shiqildoq“ o'ynayotgan edim, to'satdan, hov narida bir kuchuk bolaning bizga mung'ayibgina qarab turganini ko'rib qoldim. „Egasi yo'q, daydiga o'xshaydi“, degan fikr keldi boshimga. O'rtoqlarimdan ajralib chiqib, asta-sekin yoniga bora boshladim, cho'ntagimda yarimta sutli patir bor edi. Onam bergen nonning yarmini yeb, yarmini o'rtoqlarimga ko'z-ko'zlab yeyishni yaxshi ko'radian odattim bor edi. Patirning burdasini kuchukning yoniga qo'ydim. Kuchuk avval cho'chigandek orqasiga tisarildi-da, keyin nonga yaqinlashib hidlab ko'rdiyu, yemasdan menga tikilib qoldi. Aftidan „noningni yesam, keyin menga minnat qilmaysanmi?“ deyayotgandek edi. „Yo'q, hech ham minnat qilmayman“ deb o'ylagan bo'lsam kerak o'shanda.

Harqalay kuchuk nonni yedi, yeganda ham yutoqib, ochko'zlik bilan, shosha-pisha yedi, xuddi ikki yamlab bir yutgandek bo'ldi-da, so'ng „Noning lazzatli ekan-ku, yana yo'qmi?“ degandek menga quvonch to'la sariq ko'zlarini tikib dumini likillata boshladи. Erkalanib, oldingi oyoqlarini ko'tarib ko'ksimga qo'ydi. Achomlashgancha uygа jo'nadik.

Eh, o'shanda quvonganimni ko'rsangiz!

Kumushdan quyilgandek chiroyli, mayda to'qilgan zanjircham bor edi. „Yangi mehmon“ni o'shangan bog'lab (qochib ketmasin dedim-da) oldiga tovoqda suv, ovqat qo'ydim, na ovqatga qaraydi, na suvga! Zanjirni uzmoqchi bo'ladi, dumalab yer tirnaydi, ingillab tinmay yig'laydi.

Uch-to'rt kun shu ahvolda o'tdi. Kuchukcha ozib-to'zib, yangi tug'ilgan mushuk boladek kichkina bo'lib qoldi. Lekin ingillashi, zanjirni uzib ketaman deya urinishlarini qo'ymadi deng. Ko'zl to'la g'azab-nafrat, qarashga botinolmayman.

Bir kuni ertalab o'rnimdan tursam, kuchukcha yo'q — zanjirni tishi bilan g'ajib uzibdi-yu, qochib qolibdi.

Shunday achindimki, shunday xafa bo'ldimki, ishonsangiz, yig'lavoray dedim. Hamma voqeani boshidan kuzatib yurgan rahmatli bobom (ilohо go'ri to'la nur bo'lsin) meni bag'riga olib yupatgan bo'ldi.

— Xafa bo'lma, o'g'lim,— deya boshimni siladi,— kuchuging bo'ynida zanjir bilan tobe bo'lib ovqat yegandan ko'ra, erkinlikda och yurishni afzal ko'ribdi. Sher va arslonlar avlodidan ekan, sher va arslonlar bo'yniga zanjir bog'latmaydi. Mag'rur bo'lishadi.

O'sha kuchukni men , qaytib qishlog'imizda ko'rmadim.

## IZZA.

*Shohida Shokirova.*

(*Qatra.*)

Noila dugonasi Salimalarnikiga shoshilgancha ketib borardi. U dugonasi yashaydigan ko'chaga burilganida issiqliqdan terlab-pishib, ikki qo'lida yuk ko'tarib ketayotgan ayolga ko'zi tushdi. O'zi ham issiqliqdan lohaslanib borardi. Shuning uchun tez-tez yurib, undan o'zib keta boshladi. Ayol unga qarab endi og'iz juftlamoqchi edi, Noila yerga qaragancha ship-ship yurib ketdi.

U Salimalarning eshik qo'ng'irog'ini bosdi. Salimaning o'zi eshikni ochdi va uni ichkariga taklif qildi. Biroz vaqt o'tar-o'tmas eshik ochilib, darvozaxonaga haligi ayol harsillab kirib keldi. Salima unga qarab:

— Voy, xolam keldilar! Assalomu alaykum xola,

yaxshimisiz, issiqda yuk ko'tarib nima qilardingiza?— deb tinmay hol-ahvol so'rashar, Noila esa o'zidan-o'zi qizarib borardi...

## MENING BOBOQ XO'ROZIM.

*Abduxoliq Marayimov.*

Havo aynib, yomg'ir yog'a boshladi. Uyga chopdim. Qiziq, hozir qishloqdag'i o'rtoqlarim nima qilishayotgan ekan? U yerda ham yomg'ir yog'ayotganmikan? Bunaqa paytda rosa o'ynardikda. Shaharga ko'chib ketayotganimizda biram achinishgandi. Arslon degan kuchugimizni qo'shnimizga qoldirib, faqat boboq xo'rozimni olib kelganmiz. U yog'ini so'rasangiz, hali unga katak ham qilganimiz yo'q. Katta yog'ochga oyog'idan bog'lab qo'yganman. Aytmoqchi, yomg'irda holi nima kechdiykin?

Iye, huv ana, yog'ochning tagiga kirib olibdi-ya. Bechora rosa bo'kibdi-ku? Ko'rib rahmim kelib ketdi... Darhol yugurib borib, oyog'ini yechdim-da, qo'ltiqlagancha izimga qaytdim. Yomg'ir o'chakishgandek haddidan oshardi. Xo'rozim qo'limdan chiqib, o'zini karavot tagiga urdi. Qishloqda doim

gerdayib yuradigan xo‘rozm mendan arazlaganmi, hadeganda chiqavermadi. Qaytib chiqishini ancha kutib o‘tirdim. Oxiri zerikkanimdan karavotga cho‘zilgandim, ko‘zim ilinibdi.

Bir mahal xo‘rozimning qichqirig‘idan uyg‘onib ketdim. Qarasam, yomg‘ir tinibdi. Dadam hovlida qandaydir ish bilan bandlar. Xo‘rozim bo‘lsa, nariroqda kerilib donlab yuribdi. Chaqirsam ham menga qaramaydi. Dadam meni ko‘rib yonlariga chaqirdilar.

— Karimjon,— dedilar kulib. — Mana, tovuqxona ham bitib qolay dedi.

Birdan kechagi „ot“ qilib minib yurgan tayoqcham esimga tushib qoldi. Darrov uni topib, dadamga olib kelib berdim.

— Katak ichiga qo‘noq qilamiz.— Shunday dedimu xo‘rozimga qaradim. U go‘yo fikrimni tushungandek qanotlarini bir-biriga urdi. Kerilgan-cha:

Qu-qu-qu-quq!— deb qichqirib yubordi. Men „yarashganimizdan“ xursand bo‘lib ketdim.

### 3- mashg'ulot.

#### ERTAKLAR OLAMIDA.



#### JIMJILOQ.

*Chingiz Aytmatov.*

Bir bor ekan, bir yo'q ekan, bir kampir bilan cholning bo'yi jimjiloqday keladigan o'g'li bo'lgan ekan. Oti ham Jimjiloq ekan. Nima bo'pti-yu bir kuni bolani bo'ri yutib yuboribdi. Yo'q, undan ham oldin uni tuya yeb qo'ygan ekan. Voqeа bunday bo'pti: Jimjiloq otqulоq bargining soyasida uxlab

yotgan ekan, o'sha yerda o'tlab yurgan tuya bolani bargga qo'shib yamlab yuboribdi. „Tuya yutganini bilmaydi, kavshaganini biladi“, degan matal o'shandan qolgan ekan.

Jimjiloq tuyaning qornida yotib bor ovozi bilan chinqirib yordam so'rabdi. Chol bilan kampir bu ovozni eshitib qolib, tuyani so'yishibdi-da, qornidan Jimjiloqni chiqarib olishibdi.

Bir kuni yelib-yo'rtib kelayotgan och bo'ri Jimjiloqni uchratib qopti.

— Zig'irtay bo'lib olib, buncha likillaysan, kimsan o'zi? Ikki yamlab bir yutaymi? — debdi bo'ri.

— Yo'q, menga tegma, — debdi Jimjiloq, — o'zingga qiyin bo'ladi, it qilib qo'yaman seni.

— Gaping buncha betayin, bo'rining it bo'lganini kim aytdi senga o'zi? Mana shu gaping uchun seni yeymen, — debdi-da, bo'ri bolani yutib yuboribdi. Jimjiloq bo'rining chap ichagiga ham yuq bo'lmabdi. Keyin nima yegani esidan chiqib ketibdi. Shu-shu bo'ri bo'lganidan pushaymon bo'la boshlabdi. Qorni ochib otarga yaqinlashishi bilanoq, Jimjiloq bo'ri qornida turib, bor ovozi bilan: „Ey, cho'pon, uqlama! Men o'g'ri bo'riman, qo'ylaringni qiyratgani kelayapman!“ — deb jar solar ekan.

Holdan toygan bo'ri yerga ag'anapti, o'zining

qorin-biqinini jahl bilan uqalay boshlabdi. Jimjiloqqa nima? Qaytanga undan battar avjiga chiqarmish:

— Ey, qo‘ychivonlar, chopinglar bu tomonga, meni savalanglar!

Cho‘ponlar bo‘rining oldida hoziru nozir bo‘lishibdi. Bo‘rining esa dumini qisib qochib qolishdan boshqa iloji qolmabdi. Hamma hayronmish. Bu qanday sir bo‘ldi o‘zi? Chunki qochib ketayotgan bo‘ri hadeb: „Meni quvib yetinglar“, — deb baqirarmish.

Bo‘ri bir amallab qutulishga qutulibdi-yu, lekin qornini hech narsa bilan to‘ydira olmapti.

Shunday qilib, bo‘ri qayerga bormasin, Jimjiloq hammani ogoh qilaveribdi. Bo‘rining toqati toq bo‘libdi. Ozib ketganidan eti borib ustixoniga yopishibdi. „Endi nima qilsam ekan, o‘z boshimga falokatni sotib oldim-ku, qayga bormay, endi menga tinchlik yo‘q“, deb yig‘lamoqdan beri bo‘libdi.

Jimjiloq bo‘lsa, sekingina uning qornidan: „Toshmatga bor, qo‘ylari semiz! Boymatga bor, itlari qari! Ermatga bor, qo‘ychivonlari uyquchi“, — deb ovoz chiqarib qo‘yarmish. Oxiri hiqillab yig‘lab: „Gaplaringga kirib bo‘pman, undan ko‘ra biron odamnikiga borib, it bo‘lib olganim yaxshi“, — debdi. Shunday qilib, bo‘ri it bo‘lib qolgan ekan.



## ARQON.

*Qutbi Nosirova.*

Bu voqeani menga akam so'zlab bergen edi. Qoq tush payti. Kun qizigandan qizigan. Otamga pichan o'rimida yordam berish uchun borishim kerak edi. Yelkamda o'roq, belimga arqonni uch-to'rt sidra aylantirib olganman. O'tlarni o'rib, bog'lab kelaman-da.

Biydek dala. Hech kim yo'q. Anhor yoqalab ketayapman. Xayolimda buvimning gaplari: „Hudabehuda anhor bo'yida yuravermanglar. Suvda har xil ilonlar borki, o'tganni suvning tagiga olib kirib ketaman, deb shaylanib turadi...“

Shu vahimada ketaturib, oyog‘imda bir narsa o‘rmalaganini sezdim. Bunday qarasam...

— Voydod, ilon! Ilo-o-on!

Yuguryapman, yuguryapman, yugurganim sari ilon battar oyog‘imga o‘ralashadi. Oxiri nafasim tiqilib, gup etib yiqildim. Ana! Ilon hademay tanamga chirmasha boshlaydi. Qo‘rquvdan yuragim gup-gup urib ketdi.

— Nima gap, Sattorxon! Tinchlikmi?

Uzoqdan otamning ovozlari eshitildi.

— Ilon,— dedimu hushimdan ketayozdim.

Otam yetib keldilar.

— Iye, oyog‘ingdagi arqon qaydan ilashdi?

Hushyor tortdim. Qo‘rqa-pisa belimni paypaladim.

— Belimdagi arqon qani?

Otam menga hayron bo‘lib qarab turdilar-da, kulib yubordilar.

— Obbo sen-ey, o‘takamni yording-ku! Beling-dagi arqon oyog‘ingga o‘ralib tushibdi.

O‘zim ham oyog‘imda o‘ralashib yotgan arqon — ilonni ko‘rib kulib yubordim. Qo‘rquvning ko‘zi katta, deb shuni aytsalar kerak.

## BIR QO'ZQDAN CHIQQAN BESH NO'XAT.

*Gans Xristian Andersen.*

Bir qo'zoq ichida beshovlon — beshta no'xat o'tirardi: ular ko'm-ko'k edilar, qo'zoq ham ko'm-ko'k edi, shuning uchun ular: „Butun dunyo ko'm-ko'k, shunday bo'lishi kerak!“ — deb o'ylashardi.

Yuz yil bo'lsa ham, bu yerda o'tiraveramizmi? — deyishardi ular. — Bunaqangi o'tiraverishda qurib, qovjirab qolmasak bo'lgani edi!..

— Paq! — qo'zoq yorilib, beshta no'xatning hammasi yorqin quyoshga dumalab chiqishdi. Ular bola kaftida yotishardi: bolakay ularni ko'zdan kechirib, bular marjon naychasidan otishimga judayam bop ekan,— dedi. Lahza o'tmay bir no'xat o'zini naycha ichida ko'rди, bolakay pufladi va u uchib ketdi.

U ko'hna yog'och uychaga uchib bordi-da, boloxona derazasi tagidagi tirqishga dumalab kirib ketdi. Tirqishda yo'sin bilan mayin tuproq bor edi. Yo'sin no'xatni o'z tagiga yashirib qo'ydi.

Uychada esa bechorahol bir ayol yashardi U ishga ketganda uyda yakkayu-yagona bemor qizi qolardi.

Bu voqeа bahorda, erta tongda, onasi engina ishga ketay deb turganda yuz berdi. Kichkinagina derazachadan quyosh nuri shundoqqina yerga tushib turardi. Bemor qiz ko'zini uzoq vaqtgacha derazachadan uzolmay tikilib qoldi.

— Derazaning naryog‘ida nima ko‘karyapti?  
*Shamoldan tebranyapti!*

Onasi derazaning oldiga borib, uni ochdi.

— Ana xalos! — dedi u,— no‘xat nish uribdi-ku!  
Bu tirqishga u qanaqa qilib tushib qolgan ekan?  
Mana, endi, qizim, o‘z bog‘chang bo‘ladi!

Qizcha ko‘m-ko‘k niholni tomosha qilish uchun  
onasi uning karavotchasini derazaga yaqinroqqa  
surib qo‘ydi-da, ishga ketdi.

— Onajon, men tuzalib ketaman, deb o‘ylayap-  
man! — dedi qizcha kechqurun. — Quyosh meni  
bugun judayam isitdi. No‘xatni ko‘ring, u ham  
quyosh nuridan bahramand bo‘lib, judayam tez  
o‘sayapti. Men ham tuzalib ketaman, o‘rnimdan  
turib, oftobga chiqaman.

— Aytganing kelsin! — dedi onasi, lekin uning  
sog‘ayib ketishiga ishonmadi.

Shunga qaramay, u qizini ruhlantirib yuborgan  
ko‘m-ko‘k niholcha shamolda sinib qolmasligi uchun,  
yoniga kichikroq tayoqcha tiqib qo‘ydi; keyin in-  
gichka chilvir olib, uning bir uchini tomga, ikkinchi  
uchini esa, derazaning yuqorigi chekkasiga bog‘ladi.  
No‘xat niholchasi o‘sса boshlaganda ana shu chil-  
virga yopishib olishi mumkin edi. Aslida ham shun-  
day bo‘lib chiqdi: niholcha sezilarli ravishda o‘sib.  
chilvir bo‘ylab yuqoriga o‘rmalab keta boshladi.

— Qaragin, hademay no‘xating gullaydi! — dedi ayol bir kuni ertalab. Keyin shu daqiqadan boshlab bemor qizining sog‘ayib ketishiga ishona boshladi.

U keyingi kunlarda qizi jonliroq gapirayotganini, ertalablari ó‘zi o‘rnidan turib, bor-yo‘g‘i bittagina no‘xat o‘sayotgan bog‘chasini uzoq vaqt tomosha qilib o‘tirishini esladi. Bunaqangi paytlarda qizining ko‘zchalari chaqnab ketardi! Bir haftadan keyin esa, bemor qiz birinchi marotaba o‘rnidan turib, roppa-rosa bir soat yotmadi. Oftobda o‘tirganiga u judavam baxtiyor edi. Deraza ochib qoyilgan, uning nariyog‘ida esa oq-pushti rang gul chayqalib turardi. Qizcha boshini dérazadan chiqarib, mayin gulbarglarini ehtiyotkorlik bilan o‘pib qo‘ydi. Mana shu kun uning uchun haqiqiy bayramga aylandi.

— Bolaginam, seniyam, meniyam ruhlantirib, xursand qilish uchun xudoyimning o‘zi gulchani ekib, katta qildi! — dedi baxtiyor ona, keyin gulchaga xuddi farishtaga qarayotgandek qarab, kulimsiradi.

### UCHTA OLTIN QO‘G‘IRCHOQ.

*Hind xalq ertagi.*

Rivoyat qilishlaricha, vir podshoh bo‘lgan ekan. U qo‘shni sultanat fuqarolarining zehnini bilmoqchi bo‘libdi va sovg‘a tariqasida o‘sha mamlakat

sultoniga uchta oltin qo‘g‘irchoq yuboribdi. Hamma qo‘g‘irchoqlarning tashqi ko‘rinishi, bo‘yi-basti va og‘irligi bir-biridan hech farq qilmas ekan. Lekin podshoh, bu qo‘g‘irchoqlar bir xil bo‘lsa ham, ularning narxi har xil, biri arzon, ikkinchisi qimmat, uchinchisi undan qimmat, shuni hal qilib berishsa, deb tayinlab yuboribdi.

Sovg‘adan qo‘shni mamlakat sultonining boshi os-monga yetibdi va saroy ahlini yig‘ib, qo‘g‘irchoqlarning biri ikkinchisidan nimasi bilan farq qilishini aniqlab beringlar, deb buyuribdi. Saroy ahli uchala qo‘g‘irchoqni bir-bir qo‘lga olib ko‘rib chiqibdi-yu, ularda hech qanday farq yo‘q, degan qarorga kelibdi.

Arzimagan aybi uchun zindonga tashlangan bir yosh kambag‘al yigit bu xabarni eshitib, qo‘g‘irchoqlarni ko‘rmoqchi ekanligini sultonga yetkazishni iltimos qilibdi. „Agarda haq bo‘lib chiqsam, meni zindondan ozod qilsalar bo‘lgani“,— debdi u.

Sulton yigitni saroya olib kelishni buyuribdi. Qo‘g‘irchoqlarni olib kelib, uning oldiga qo‘yishibdi.

Yigitcha qo‘g‘irchoqlarni diqqat bilan ko‘zdan kechiribdi va uchalasining ham qulog‘i ichida teshik-chalar borligini payqabdi.

Shunda u bir bug‘doy poyasini olibdi-da, qo‘g‘irchoqlardan birining qulog‘iga tiqibdi, poyaning

uchi uning og‘zidan chiqibdi. So‘ng poyani ikkinchi qo‘g‘irchoqning qulog‘iga tiqqan ekan, poyaning uchi narigi qulog‘idan chiqibdi. Poyani uchinchi qo‘g‘irchoqning qulog‘iga tiqqan ekan, poya uning qorniga tushib ketibdi.

Shunda yigit sultonga qarab, odob bilan debdi:

— Hazrati oliylari, bu qo‘g‘irchoqlarda insonlarga xos odatlar mavjuddir. Mana bu birinchi qo‘g‘irchoq, eshitganlarini darrov hammaga gapirib beradigan odamlarning timsolidir. Bunday odamga ishonib bo‘lmaydi. Shuning uchun bu qo‘g‘irchoqning bahosi qimmat emas. Ikkinchi qo‘g‘irchoq esa, hamma gapni bir qulog‘i bilan eshitib, ikkinchisidan chiqarib yuboradigan odamlar ramzidir. Bunday odam beg‘am bo‘lib, u birovning gapiga quloq ham solmaydi, maslahatiga ham kirmaydi. Uchinchi qo‘g‘irchoq esa xuddi „tuya ko‘rdingmi, yo‘q“ qabilida yuradigan, eshitgan gapini ichiga yutib ketadigan odam timsolidir. Bunday odamlar vazmin, mulohazali bo‘lib, ularga ishonsa bo‘ladi. Shuning uchun ham uning bahosi hammasidan yuqori turadi.

Yigitning gaplarini eshitgan sulton o‘zida yo‘q xursand bo‘libdi. Saroy ahli uni olqishlab izzat-ikromga sazovor qilibdi. Shundan so‘ng Sulton har bir qo‘g‘irchoqqa o‘z bahosini yozdiribdi-da, unga

sovga qilib yuborgan podshohga qaytarib yuboribdi. Yigitchani esa zindondan ozod qilib, saroyga xizmatga olibdi.

## KASHMIRLIK SEHRGAR.

*O'zbek xalq ertagi.*

Bor ekanda yo'q ekan, bir podshoh bo'lgan ekan. Uning go'zal qizi bor ekan. Bir kambag'al yigit unga oshiq bo'lib, sovchi qo'yibdi. Shunda shoh, kuyov bo'lmish zo'r hunar egasi bo'lsa, qizini berishini aytibdi.

Yigit kashmirlik sehrgar huzuriga borib, hunar o'rgatishini so'rabdi. Uning qizi yigitni juda yoqtirib qolibdi.

Qiz otasidan o'rgangan barcha hunarini ishga solib, uni tengi yo'q sehrgar qilibdi. Bundan xabar topgan ota qattiq darg'azab bo'libdi. Bu hunarni mukammal o'rgangan yigit uyiga qaytibdi. O'g'lini xursandlik bilan kutib olgan otasi uyda yeishga hech vaqo yo'qligidan zorlanibdi.

Yigit esa otasiga tasalli beribdi-da, duo o'qib otga aylanishini, otasi uni bozorga olib borib ming tillaga sotishini aytibdi.

Chol otni sotib uyga qaytsa, o'g'li uyda o'tirgan emish. Otasi xursand bo'lib, agar yana pulimiz bo'lsa, yer sotib olardik,— debdi.

— Mayli ota, xotirjam bo'ling,— debdi-da, duo o'qib tuyaga aylanibdi. Chol uni bozorga yetaklabdi. Ayni shu paytda sehrgar bozorda ekan. U tuyani tanib, darhol uni sotib olibdi.

Uyiga olib kelgach, qiziga pichoq olib kelishni buyuribdi. Gap nimadaligini tushungan zukko qiz: „Otajon, men tuyani ushlab turay, siz pichoqni topib chiqing“, — debdi.

Shu payt yigit kabutarga aylanib uchib ketibdi. Sehrgar esa burgutga aylanib, uning ketidan uchibdi.

Yigitga yetay-yetay deganda u qurbaqaga aylanib, suvga tushibdi. Sehrgar esa laylakka aylanib, uni suvdan qidira boshlabdi.

Shunda yigit bedanaga aylanib, osmonga ko'tarilibdi. Kashmirlik esa lochin bo'lib, uning ortidan quvibdi.

Bedana shoh saroyiga uchib kelib, chiroyli atir-gulga aylanibdi. Qariya ham o'ylab o'tirmay bulbulga aylanibdi va gulning atrofida sayray boshlabdi.

Shunda malika gulni ko'tarib otasiga olib borgan ekan, sehrgar sozanda qiyofasida shoh huzuriga kirib boribdi-da, soz chalib qo'shiq aytibdi.

Qo'shiq shohga ma'qul tushib, kashmirlikni olqishlabdi. Makkor kashmirlik paytdan foydalanib gulni sovg'a qilishni so'rabdi. Shoh esa gulni berishni istamabdi. Kashmirlik yana so'rabdi. U

uchinchi marta so'raganda shoh qattiq g'azablanib gulni yerga urgan ekan, u tariq bo'lib yerga sochilib ketibdi. Kashmirlik ham tovuqqa aylanib, tariqnini terib yebdi.

Yashirinib qolgan bir dona tariq darhol tulkiga aylanib, tovuqni yeb qo'yibdi-da, -duo o'qib chiroyli yigitga aylanib qolibdi.

Bu mo'jizadan hayratda qolgan shoh malikani kambag'al yigitga berishga rozi bo'libdi va qirq kecha-yu, qirq kunduz to'y qilibdi. Shunday qilib yigit murodu maqsadiga yetibdi.

#### 4- mashg'ulot.

**YAXSHI FAZİLAT — İNSÖNNİNG HUSNI.**

**TO'RT SEHRGAR.**

*Po'lat Mo'min.*

Bor edi to'rt og'ayni,  
Yetilgan payti ayni,  
Bular to'rt so'z-ibora,  
Zo'r ma'nodan iborat.  
Chin insonlar ichida  
Obro' topgandir juda.



Bir yumalab, aytganday,  
Bamisoli ertakday  
Libos kiyib ustiga,  
Kirgan odam tusiga,  
Mag'zin chaqsangiz agar,  
To'rttovi-to'rt sehrgar.  
Birin nomi — **KO'P PAHMAT**,  
Ikkinchisi — **MARHAMAT**.  
Uchinchisi — **ASSALOM**,  
Saqlar hurmat-ehtirom.  
Ochilganday dil guling,  
To'rtinchisi — **SOG' BO'LING**.  
Bir kun ular birlashib,  
Fikrlashib, sirlashib.  
Ochishibdi bir maktab,  
Ta'lim, odobga atab.  
Xabar berib har tomon.  
Yozishibdi zo'r e'lon.  
Bu e'lonni eshitib  
Kelibdilar yetishib.  
Dars boshlabdi to'rt sinf,  
Hamma kepti sevinib.  
Bunda to'rt o'qituvchi,  
Dilga mehr o'rnatish.

Odob, ta'lim o'rgatish  
Ekan asosiy burchi.  
Talabadan ertalab  
Qilinar shunday talab:  
Badantarbiya qilish,  
Chopish, sakrash, bukilish..  
Tozalamoq og'iz, tish—  
Sanalar eng muhim ish.  
Yuvinib salom bermoq,  
Oddiy gap ekan, biroq  
Yotar chog'i „XAYRLI TUN!“  
Deyish ekan chin qonun.  
Soz bo'lsa kimning xulqi,  
Tugamas baxt-u mulki.  
Inson insonni izzat  
Qilish-chi — oliv xizmat.  
Kuyib-pishgan bir xola,  
Boshlab kelmish bir bola.  
Shishib ketgan yanog'i,  
Xip bo'g'ilgan tomog'i.  
Suv berishsa to'karmish,  
Ko'ringanni so'karmish.  
Judayam emish tajang,  
Boshlashga tayyormish jang,

Ko'nmay hech qanaqaga,  
Kelmabdi epaqaga.

**SOG' BO'LING** va **ASSALOM**  
Holdan ketmishlar tamom.

**MARHAMAT** va **KO'P RAHMAT**,  
Rosa chekmishlar zahmat.

Shomu kunduz,. saharlar,  
Urin mish sehrgarlar.

Yuz kuncha o'tgandan so'ng  
Bolakay qarabdi o'ng.

Oxiri tuzalibdi,  
Keyin-chi qizaribdi.

Endi olaytirmas ko'z,  
Bo'pti mayin, shirin so'z.  
Sehrgarlar maktabin,  
Sirli ekan talabi.

Bu yerda o'qib chiqqan,  
Odobli ekan chindan.

Har yerda bilinarkan,  
Zab hurmat qilinarkan.

To'rt sehrgar muallim,  
Hammaga ekan ma'lum.

**KO'P RAHMAT** va **MARHAMAT**,  
**SOG' BO'LING** va **ASSALOM**  
Ularga ming ehtirom!



## TONGGI SO'Z.

*Raim Farhodiy.*

Ahmad tongda uyg'onди-yu yugurib hövliga chiqdi. Qarasa, baroq mushugi unga qarab kelayapti. Boshini egib, oyoqlari ostida erkalana boshladi.

— Miyov-miyov!

Ahmad hayron bo'lib turdi-da, yo'lida davom etdi. Shunda tong shamoli g'uvillab unga ergashdi. Yaproqlarni shitirlatiб, kuylay boshladi: g'uv-g'uv...

Qayerdandir bir chumchuqcha uchib kelib, daraxt shoxiga qo'ndi. So'ngra Ahmadga qarab, sayray boshladi:

— Chiriq, chiq-chiriq...

Ahmad qushchaning qo'shig'ini berilib tingladi-da, yana yo'lga tushdi. Qarangki, qadrdon kuchugi Qoplon inidan chiqib qoldi. U ham to'ppa-to'g'ri Ahmadning oldiga chopib keldi. Dumini likillatib vovulladi:

— Vov-vov-vov!

Ahmad hovuz bo'yiga keldi. Suvda g'oz va o'rdaklar suzib yurishardi. Ular qirg'oqqa yaqinroq kelib qichqirishdi:

— G'oq-g'oq-g'oq!

— G'a-g'a-g'a!

Shu payt qo'shni uyning eshigi ochilib, Nigora ko'rindi. U jilmayib:

— Salom, Ahmad! — dedi.

— Salom, Nigora! — javob berdi Ahmad ham.

Shundagina u yo'lda uchratgan do'stlari — mushuk, shamol, Qoplon, g'oz va o'rdaklarning unga nima deyishganini tushunib oldi.

Bolalar, erta tongda aytildigan bu so'zning qanday so'z ekanligini bilasiz-a!

# SALOM.

*Shodi Sattor.*

Har ertalab  
Maktab tomon  
Quvnab-quvnab yo'l olaman.  
Eh-e, yo'lda  
Qancha-qancha  
Odamlarga duch kelaman.  
Xoh tanish, xoh notanish—  
Salomlashmay o'tolmayman,  
Aks holda,  
Men o'zimni  
Shod-xurram his etolmayman.  
Salomlashib,  
Yangi do'stlar  
Orttirmoqlik juda oson.  
Salom bilan  
Bir-biriga  
Inoqlashib ketar inson.



ASSALOMU ALAYKUM.

*Safar Barnoyev.*

*(Hikoya.)*

Bu hikoyani men emas, aslida Nilufar yozishi kerak edi. Har holda Nilufar hikoya qilib beradigan bo'lsa, albatta, mana bunday boshlagan bo'lardi:

— Tilim chiqqan kundan boshlab men bilan gaplashadigan, erkalaydigan odam ko'paydi. Onam ertadan kechgacha kiyimlarimni almashtirib yuz-qo'limdan o'psalar, adam qo'limdan yetaklab yuradilar. Qadamimga mos qadam tashlab:

— Nilu, Nilush,— deb, gohida bo‘yinlariga mindirib oladilar.

Xolam bo‘lsalar oynaga qarab sochimni tarab:

— Chiroyli, chiroyli,— deb maqtaganlari maqtagan.

Tog‘am, ammam, bobom, buvim, aytaversam, buncha serurug‘ ekansan, deyishingiz mumkin. Ko‘pchilik bo‘lib yashash yaxshi ekan. Meni qo‘ldan qo‘ymasliklari ham ana shundan. Qo‘g‘irchoq, o‘yinchoqlarimning son-sanog‘i yo‘q. Ko‘chaga chiqib kelishsa, uyga quruq qaytishmaydi.

— Nilufarga mana buni oldim.

— Niluning qizil paypog‘i yo‘q edi, yaxshiyam ustidan chiqib qoldim.

Bunaqa so‘zlarni kun ora eshitaman. Meni chiroyli, chiroyli, deb maqtaydigan xolam kecha „assalomu alaykum“ degan yana bir so‘zni o‘rgatdilar.

Men bu payt xontaxta atrofida aylanib yurardim. Xolamning aytgan so‘zlari juda yoqimli edi. Hech bunaqasini eshitmagandim. Xolam yana nima der ekanlar, deb ularga qarab yura boshladim. Xolam kela solib meni dast ko‘tarib, toshoyna oldiga olib bordilar. Oynaga qarab avval sochlarini, yoqalarini tekisladilar. Keyin mening boshimni egib, qo‘limni ko‘ksimga qo‘ydirib, „Assalomu alaykum“ deyishga o‘rgata boshladilar.

— Qani, assalom, de-chi!

Men ham xolam aytganlarini qaytardim.

— Ashshalomu alaykum!

— Voy-voy, o'rgandi, o'rgandi,— deya qichqirdilar xolam.

Ko'p o'tmay uydagilar birin-ketin kela boshlashdi. Xolam kim kelsa meni maqtab:

— Nilufar salom berishni o'rgandi,— deydilar.

— Iya, iya, rostdanmi?

— Qani, bir salom ber-chi!

Xolamning so'zlari yerda qolmasin uchun dasturxon atrofida o'tirganlarga qarab qo'limni ko'ksimga qo'yib:

— Ashshalomu alaykum,— dedim.

— Vaalaykum assalom, katta bo'ling, dono bo'ling,— maqtab ketdilar bobom.

O'tirganlarning bari suyunishdi, achom-achom qilishdi.

Bilasizmi, nima uchun sizga bu gaplarni aytayaman. Xolajonim bu so'zni biror joydan topib kelgan bo'lsalar kerak. Yo'qsa, bilgan so'zlari „chiroyli“ edi.

Mana ikki kundirki, uydagilar ertalab turishi bilan menga qarab qo'llarini ko'ksiga qo'yishadi-da:

— Assalomu alaykum!— deyishadi.

Men darhol bu so'zni takrorlab:— Ashshalomu alaykum!— deyman.

Uyimizga mehmon kelsa ham darrov menga:

— Qani, amakilaringga bir salom ber! — deb aytishadi.

Men sal egilib, salomimni boshlasam, mehmon ham xuddi menga o'xshab „vaalaykum assalom” deb takrorlaydi.

Xolam menga ana shunaqa hammaga yoqadigan so'zni o'rgatib qo'ydilar.

Keling, siz ham o'sha yoqimli so'zni bir eshitib ko'ring!

— Ashshalomu alaykum!

### KIMNING QO'LI CHIROYLI.

*Hind xalq ertagi.*

Jamna daryosi yoqasida uch zodagon ayol suvni shaloplatip o'ynab o'tirishgan ekan. Bir vaqt ular bir-biriga qo'llarini ko'z-ko'z qila boshlashibdi.

— Mening qo'lim hammanikidan chiroyli,— debdi birinchisi.

— Meniki ham siznikidan qolishmaydi! — dermish ikkinchisi.

— Mening qo'lim ikkalangiznikidan ham chiroyliroq! — debdi uchinchisi.

Shu payt ayollarning oldiga och, kiyimlari yupun, o'zi nogiron bir kampir kelibdi va ulardan yegulik biror narsa berishlarini so'rabi. Zodagon ayollar bo'lsa sho'rlik kampirga hech narsa bermay, faqat:

— Bizga shuni ayt-chi, xoy kampir, qaysi birimizning qo‘limiz chiroyli? — deb so‘rashibdi.

— Biror narsa tamaddi qilib olay, keyin aytaman,— debdi tamshanib kampir va yo‘lida davom etibdi.

Kampir bir oz yuribdi-da, daryo bo‘yida o‘tirgan bir kambag‘al dehqon ayolga duch kelibdi. Ayol dalada ishlayverganidan qo‘llari shunaqangi qorayib ketgan ekanki, terisi xuddi ko‘mirga o‘xsharmish. Kampir asta uning oldiga borib sadaqa so‘rabdi:

— Ochdan o‘lay deyapman! Biron-yegulik narsang bo‘lsa ber, qornimni to‘yg‘azay.

— Xo‘p bo‘ladi, onajon! Menda ozgina yegulik bor, yarmini siz yeya qoling,— debdi dehqon ayol.

Kampir tamaddi qilibdi, orqasidan suv ichibdi va dehqon ayolni astoydil duo qilibdi. Keyin uning qo‘lidan tutib boyagi zodagon ayollar oldiga olib kelibdi-da, ularga qarab shunday debdi:

— Mana endi kimning qo‘li chiroyli ekanligini aytaman. Ochiqqan, nogiron bir kampirning qornini to‘yg‘azgan mana bu kambag‘al ayolning qop-qora qo‘llari sizning oppoq, nozik qo‘llaringizdan ming chandon chiroyliroqdir!

Shunday debdi-yu, kampir g‘o‘yib bo‘libdi. Uchala zodagon ayol bo‘lsa uyalishganidan yer yorilmabdi-yu, yerga kirmabdi, sho‘rliklar yer chizgancha qolaverishibdi.

## 5- mashg'ulot.

### XAZINALAR DURDONASIDAN.

#### TOPISHMOQLAR.

*Sobit Gafurov.*

1) Osmonda uchar nima?

Tog'larni quchar nima?

Shamol otda yurtlardan—

Yurtlarga ko'char, nima?

(*Samolyot.*)

2) Shakar kabi oq, mayda,

Ammo ta'mi shirinmas.

O'yla, hech vaqt, hech qayda

Usiz ovqat qilinmas.

(*Tuz.*)

3) Ko'y lagi juda yupqa,

O'xshaydi rangdor to'pga.

Bayram bo'lsa, qiynaymiz

Bog'lab ularni ipga.

(*Pufak.*)

4) Yerda asta unadi,

Oftob chiqsa kuladi.

U bahorning elchisi,

Buni hamma bilaди.

(*Boychechak.*)

## TEZ AYTISHLAR.

Tilim-tilim tilla qovunning  
To'rt tilimi tilimni tildi.

\* \* \*

Tovuq sovuqda sovqotadimi?  
Sovuqda tovuq sovqotadimi?

\* \* \*

Oydinga oynadan oy mo'raladi.  
Keyin Oydinga oyisi mo'raladi.

\* \* \*

Bashar bilan Yashar yashil yarim sharda yashashar.

\* \* \*

Temur bilan Yo'lchi — temir yo'lchi,  
Temir yo'lchilarga aytib ko'r-chi!

\* \* \*

Tushlikda teshik tishim tushmay,  
Kemtik tishim tushibdi.

\* \* \*

Darsda Nasim rasm soldi,  
Nasim rasmga razm soldi.

\* \* \*

Jamila jamlagan jami jiydadan Mavjuda jamlagan  
jami jiyyda juda oz.

## MAQOLLAR.

*O'zbek xalq maqollari.*

Bilimli kishi o'zar,  
Bilimsiz kishi to'zar.

Ilmni mehnatsiz egallab bo'lmas.

Bilim — baxt keltirar.

Avval o'yla, keyin so'yla.

## 6- mashg'ulot.

## HAYVONLAR HAQIDA ERTAKLAR.

### LAYLAK BILAN TULKI.

*O'zbek xalq ertagi.*

Laylak bilan tulki do'st bo'lgan ekan. Qahatchilik vaqtি kelib, ikkisi bola-chaqasi bilan och qolibdi. Bir kuni laylak tulkiga:

Tulkivoy, sen uyga qarab tur. Men uchib borib o'zimizga va bolalarimizga ovqat topib kelay,—

debdı. Tulki rozi bo'lib, uyda bolalarga qarab qolibdi. Laylak ovga ketibdi.

Tulki uyda o'zining va laylakning bolalariga qarab o'tiraveribdi. Oradan besh kun o'tibdi, olti kun o'tibdi, laylakdan darak bo'lma'bdi. Tulkining qorni nihoyatda ochib, holdan ketay deb qolibdi, ochdan o'lar holga kelibdi. Tulki u yoq-bu yoqqa qarab, hech kim yo'qligidan foydalanib, laylakning bitta bolasini tappa bosib yeb qo'yibdi. Bolani yeb bo'lgandan keyin qarasa, laylak ikki toshbaqa, bitta qurbaqa, ikki ilonni ko'tarib olib ovdan kelibdi. Tulki:

— Ey attang, bir kun sabr qilsam bo'lar ekan, do'stim ancha oziq olib kelar ekan, endi nima deb javob beraman,— deb yig'lay boshlabdi. Laylak uyga kelsa, tulki do'sti yig'lab o'tirgan emish. Laylak:

— Ey tulki do'stim, nega yig'layapsan?— deb so'rabi.

Tulki yig'i aralash:

— Hay, hay laylak do'stim, bolalaringdan biri kasal bo'lib o'lib qoldi, shunga yig'layapman,— deb suyaklarini ko'rsatibdi. Laylak xafa bo'libdi. Yig'labdi va bolasini olib, tulkidan yashirin boshqa yoqqa uchib ketibdi.



## SHO'RVA.

*Rauf Tolib.*

Ayni tushlik paytida kirpi o'rmondan ' biror yegulik topa olmay, quruq qaytib kelayotgan ekan. Ola quyonning uyi yonidan o'tayotsa, dimog'iga karam sho'rvaning yoqimli hidi urilibdi.

— Oh-Oh! — quvonibdi kirpi.— Ola quyonnikida sho'rva biqillab qaynab turganga o'xshaydi. O'ziyam qorin surnay chalayapti, kirsam qanday bo'larkin? „Aytmagan joyga — yo'nmagan tayoq“. Och qolsam qolay, lekin kirmayman.

Kirpi bir-ikki qadam bosibdi-yu, nari ketolmay

qolibdi. Sho‘rvaning hidi ishtahasini battar ochib yuboribdi. Yana o‘ylabdi: „Quyon o‘zimning jonajon do‘stim-ku! Biznikida ham ko‘p bo‘lgan. Bir mehmon bo‘lsam bo‘libman-da! Hoynahoy, quyonvoy meni ko‘rib, suyunib ketsa kerak“.

Kirpi tortinib, ming bir andisha bilan quyonning eshigini qoqibdi.

— Salom do‘stim quyonvoy, omon-esonmisan? — debdi Kirpi quchoq ochib.

Ola quyon kirpini ko‘ribdi-yu, birdan qovog‘i solinib ketibdi. Ammo sir boy bermay:

— Xush ko‘rdik, keling,— debdi.

— Quyonvoy, qo‘li gul pazandasan-da! Uying yonidan o‘tib ketayotsam, karam sho‘rvaning xush-bo‘y hidi dimog‘imga gup etib urildi, kira qoldim.

— Juda yaxshi qilibsan,— debdi ola quyon kesatganday.

Ola quyon ancha xasis, ziqla ekan. Birov-larnikiga mehmonga borar ekan-u, lekin o‘zi biror marta ham uyiga birovni chaqirmagan ekan. Kirpining kelishi unga yoqmabdi.

Ola quyon yo‘lda turgan chelaklarni taqillatib tepib, dam u yoqqa, dam bu yoqqa o‘tib, mehmonga dasturxon yozibdi.

Xuddi shu payt eshikdan ikkinchi mehmon — yumronboy kirib kelibdi. Mehmonlarning ikkita bo‘lganini ko‘rgan quyonning qovog‘idan qor yog‘ilibdi.

— Quyonvoy, sho'rva pishirayotgan ekansan, kelaverdim,— debdi yumronqoziq tirjayib.

— Mehmonlarga eshigim doim ochiq,— debdi ola quyon. Ichida esa: „Senga kimning ko'zi uchib turuvdi?“— debdi.

Ola quyon oshxonaga kirib ketibdi. Dam o'tmay, uning shang'illagan ovozi eshitilibdi:

— Voy, quribgina ketgur tekintomoq pashshalar-ey, nuqul tayyor ovqatga yopishgani-yopishgan-a?

Ola quyon idish-tovoqlarni bir-biriga urib taraqlatib, ovqat suzibdi. So'ng idishlarni mehmonlar oldiga taq etib qo'yibdi.

Mehmonlar bir-birlariga qarashibdi.

Ular sho'rvadan bir qoshiq ham ichmay, o'rinlaridan turishibdi.

— Quyonvoy, sho'rva juda mazali bo'lgan ekan,— deyishibdi-da, jo'nab qolishibdi.

Ola quyon ularni kuzatib kelib, bundoq qarasa, mehmonlar ovqatga qo'l tekkazishmabdi ham... U hayron bo'libdi.

— O'zlari-ku, „Qo'li gul pazandasan, sho'rvanning hidi undoq, mazasi bundoq“,— deb rosa maqtashdi. Shirin bo'lsa, nega ichishmabdi? Voy, tavba... tavba...— debdi o'ziga-o'zi.

Ayting-chi, nima uchun mehmonlar ola quyon pishirgan sho'rvani ichishmadi?



## NEGA DO'ST BO'LISHOLMAS?

*Sobit G'ofurov.*

Qaldirg'och ayvon shipiga uya qurish uchun loy  
olgani ariq labiga boribdi. O't-o'lanlar orasidan uzun  
ilon o'rmalab chiqib qolibdi-da, vishillab:

— Assalomu alaykum, qora qosh, qora soch·  
qaldirg'och! Suv ichgani keldingmi? — deb so'rabdi.

— Yo'q. Uya quryapman. Loy olgani keldim.  
Nima ishing bor edi, nega so'rab qolding? — debdi  
qaldirg'och.

— Kel, ikkalamiz do'st bo'lamiz. Qayerga uya qurayotganiningni menga ko'rsatsang, senga yordam-lashib yuboraman, — debdi ilon yana vishillab.

— Yo'q, men sen bilan do'st bo'la olmayman, chunki odatingni yaxshi bilaman.

— Sen do'stlashishni istamasang, menga yordam ber. Meni biron tanishing bilan do'stlashtirib qo'y. Bir o'zim zerikib qoldim,— yalinibdi ilon.

Qaldirg'och uchib ketibdi-da, saldan keyin tipratikanni boshlab kelibdi. Ilon tipratikanni ko'rishi bilan qochib, bir teshikka kirib ketibdi. Qaldirg'och teshik yoniga kelib:

— Xoy ilon, buyoqqa chiq, seni do'stim tipratikan bilan tanishtirib qo'yaman, — debdi.

Ilon teshikdan bosh chiqarmay:

— Sen hech mahal ilonning tipratikan bilan do'st bo'lganini ko'rganmisan?!— debdi.

— Bo'lmasa nega qaldirg'ochga do'st bo'lishni taklif qilding?— so'rabdi tipratikan teshikdan mo'ralab.

Ilon javob berolmabdi. Tipratikan jahl bilan:

— Shoshmay tur, hali qo'limga tushsang, adabingni beraman, — debdi.

Yana nima uchun sichqon mushuk bilan, asalari ayiq bilan, chumchuq chigirtka bilan, quyon bo'ri bilan, tovuq tulki bilan do'st bo'la olmasligining sababini bilasizmi?

Bir bor ekan, bir yo‘q ekan, o‘rmonda bir ola hakka yashagan ekan. Hakkavoyning ichi qora bo‘lib, birovlarning yutug‘ini ko‘rsa, kuyib-yonib ketar ekan. „Ha, senimi, shoshmay tur, bir boplab, butun xursandchililingni burningdan buloq qilmasam yurgan ekanman“, der ekan sho‘x, shodon qushlarni ko‘rganda. Ola hakka kun bo‘yi tinmas ekan, shoxdan-shoxga sakrab, mish-mish tarqatib yurarkan. Eshikdan haydashsa, teshikdan kirarkan. O‘rni kelganda yolg‘onni suvday shimirar ekan. Birovlar uning gapiga laqillab, g‘am-qayg‘uga tushsa, hakkavoy „bopladir“ deb sevinib, huzur qilib kularkan.

U filning jig‘iga tegish niyatida sekin yoniga boribdi.

— Hoy, pahlavon fil, eshitdingmi, kecha o‘rmonda katta kurash bo‘ldi. — Axir, quyonvoy sening o‘g‘lingni kurashda yengib qo‘ydi-ku!

— Nima-nima? — Filning jahli chiqib bo‘kiribdi. — Dunyoda hali hech bir quyon fil zotini yutgan emas. O‘rmonda shunday mish-mish tarqatib yuribman degin, yo‘qol!!

Fil xartumi bilan ola hakkani urmoqchi bo‘lgan ekan, u zo‘rg‘a qochib qutulibdi.

— Filning rosa jonini chiqardim. Bu ham katta gap. Endi kun bo‘yi kayfiyati buzilib yuradi, duch kelganga do‘q uradi,—debdi hakka qilmishidan mammun bo‘lib.

Ola hakka uchib bulbulning yoniga boribdi.

— E, qo‘y eski ashulangni, — debdi bulbulga. — Yaxshisi, menga ayt-chi, nega tongda konsertga bormading?

— Qanaqa konsert?— debdi hayron bo‘lib bulbul.

Hakka fursatdan foydalanib, quruq aravani rosa olib qochibdi.

— Axir, eng xushovoz qushlar ko‘rige bo‘ldi-ku! Qarg‘avoy birinchilikni oldi. Hakam a’zolari: „Yashang qarg‘avoy! Talantingizga qoyil qoldik. Siz bulbuldan ham o‘tib ketdingiz“, — deganlarini o‘z qulog‘im bilan eshitdim.

Xullas, hakka bulbulning miyasini qoqib qo‘liga beribdi. Bulbulning ensasi qotibdi-yu, lekin lom-mim demabdi. „Baribir unga teng kelib bo‘larmidi? Rosa laqillatdim-da“, — deb hakka sevinib ketibdi.

Bir shoxda zag‘chalar chag‘-chug‘lashib nimanidir bahslashishayotgan ekan. Hakkaga jon kiribdi.

— Yangi gapni eshitdinglarmi?— debdi ola hakka ular yoniga borib.

— Yo‘q, — deyishibdi zag‘chalar.


— Ana xolos, timsohvoy qanot chiqarib, osmonlarda uchib yurgan emish...

— Bo‘lmagan gapdir-ey, — deyishibdi zag‘chalar.

— Men ham sizlarga o‘xshab, avvaliga sira ishonmagan edim. Ammo kecha o‘z ko‘zim bilan ko‘rdim. Meni g‘aflat bosib, daryo tomondan uchib qolgan edim. Bir payt qarasam, timsohvoy suvdan uchib chiqdi-da, qanotlarini yozib, balo-qazoday meni quvlashga tushdi. Ko‘rinishi naq ajdarday, og‘zi jarday...

— Vuy, — qo‘rqib ketishibdi sodda zag‘chalar. Ular hakaning gapiga chippa-chin ishonishibdi.

Ammo o‘rmonda hamma ham hakka o‘ylaganday kaltafahm, paytavaquloq emas ekan. Ola hakaning hunarlari uzoqqa bormabdi. Yolg‘on-yashiq nayranglari fosh bo‘lib, o‘rmonda hech kim uning gapiga ishonmay qo‘yibdi. Bora-bora aldoqchi hakka otning qashqasiday taniqli bo‘libdi. Undan hamma qochib, qushlar uni o‘z davralariga qo‘shtay qo‘yishibdi. Shundan beri ola hakaning popugi pasayib chekkachekkalarda yolg‘iz pisib yurar ekan.



## ONA LAYLAK TASHVISHI.

*Nilufar Karimova.*

Bir bor ekan, bir yo‘q ekan. Qadim zamonda katta vodiy tomonda bir ona laylak yashar ekan. U har yili bahorda boshqa laylaklar singari go‘zal vodiya uchib kelar, tuxum qo‘yar va jo‘ja ochar ekan. Palapomlarini esa to‘qayzorda, adirlarda uchirma qilib, kuz kelishi bilan yana boshqa issiq o‘lkalarga uchib ketar ekan.

Ammo yillar o‘tib, ona laylak bezovtalana boshlabdi. Chunki ona laylakning tuxumlari ko‘pincha

palag'da bo'lib qolar ekan. Palapomlar esa kasal-mand, ko'zi ojiz, ucholmaydigan bo'lib qolar ekanlar.

Yildan-yilga laylakning do'stlari, sheriklari ham kamayib ketibdi. Oldinlari uning yonida g'uj-g'uj bo'lib uchib yuradigan sheriklari hozir onda-sonda ko'rinish qolarkan. Bechora laylak ko'kka termular, uzoq-uzoqlarga nochor ko'zlarini tikar ekan. Oxiri bu jonivorning o'zi ham quyosh nurida lov-lov tovlanib turgan bulutlarmi yoki kamyoviy korxonalaridan chiqayotgan tutun yo gazlarmi, ajrata olmay qolibdi...

Kunlar o'tibdi. Ko'zlar umuman ko'rmay qolgan ona laylak o'sha dorilomon kundardan umidvor uzoq-uzoqlarga termulgan ko'yi qotib qolibdi.

### MAQTANCHOQ G'OZ.

*Abdulla Avloniy.*

Bir g'oz suvda yurib, o'ziga o'zi maqtanib: „Olamda mendan hunarmand qush yo'qdur. Yerda yuguraman, suvda suzaman, havoda uchaman. Bir o'zimning uch xil hunarim bor“, — dedi. G'ozning bu so'zini bir qurbaqa eshitib: „Birodar, sen muncha maqtanmasang ham bo'lar edi. Chunki baliqdek suzolmaysan, kiyikdek yugurolmaysan, lochindek ucholmaysan. Chala-chulpa uch hunarni bilguncha, birini yaxshilab bilganing yaxshi edi“, — dedi.

**Maqol:** Maqtanma g'oz, hunaring oz.

Kunlardan bir kun tulki tovuqxonaga kirib maza qilib tovuqlarni yebdi-da, egasiga sezdirmay juftakni rostlab qolibdi. Tulki o'lgudek chanqabdi. Suv ichay deb rosa qidiribdi-yu, lekin hech qayerdan bir qultum ham suv topolmabdi. Tashnalikdan o'lar holatda quduq oldiga yetib boribdi. Tulki suv toparman degan umidda hech narsani o'ylamay, quduq boshidagi chelakka o'zini otibdi. Lekin uning og'irligidan chelak quduqqa tushib, ikkinchi chelakni esa yuqoriga ko'taribdi.

Shu mahal ro'paradan bo'ri o'tib borayotgan ekan. U quduqning tagidagi talkini ko'ribdi-da:

— Nima qilib u yerga tushib qolding, singiljonim? — deb so'rabdi.

— Bu yerda baliq juda ko'p ekan, shularni tutgani tushdim, akajon. Agar ishonmasang, tush, o'z ko'zing bilan ko'rasan. Eh, akajon, bularning qanday mazali va yumshoqligini aytmaysanmi? — deb javob qilibdi tulki.

— O'zi nima gap, singiljonim? Meni umringda birinchi marta ovqatga chaqirayapsan. Ilgarilari sira bunday qilmasding, — debdi bo'ri.

Mug'ombir talki:

— Do'stim, agar mening aytganlarimga shubna

qilayotgan bo'lsang, chelakning ichiga qaragin, katta baliqni ko'rasan, — debdi.

Bo'ri tulkinining gapiga ishonib, bir sakrab chelaka tushibdi. Chelak g'irillagancha pastga tushib ketibdi. Ikkala chelak o'rtada uchrashganida bo'ri ko'rsaki, tulki tepaga ko'tarilayotganmish. Shunda u ajablanib:

— Yo'l bo'lsin? — deb so'rabdi.

— Bizning hayotimiz ana shunaqa, bamisoli zinapoyaning o'zi, biri ko'tariladi, ikkinchisi tushadi, — makkorlik bilan javob beribdi Tulki.

Bo'ri quduqning tagiga tushib ketayotganida tulki eson-omon yerga sakrab chiqibdi. O'z makkorligidan faxrlanib endi yo'lga tushmoqchi bo'lib turgan ham ekanki, to'satdan oldini to'sib turgan itga ko'zi tushibdi.

— Xo'sh, yo'l bo'lsin? Bu yerda nima qilib yuribsan? — deb so'rabdi it.


— Men bo'ridan boplab o'chingni oldim, — deya maqtanishga tushibdi ayyor tulki.

— Juda to'g'ri qilgansan, bo'ri allaqachon o'limga mahkum qilingan. Lekin, bilasanmi, men yolg'on gapirganlarni jinimdan battar yomon ko'raman, sen ham qilmishingga yarasha jazongni tortishing kerak, — debdi it.

Ana shunday qilib, it tulkiga tashlanib, bo'yniqani tishlabdi-yu, bo'g'ib o'ldiribdi.

## 7- mashg‘ulot.

### VATAN, TINCHLIK VA DO‘STLIK HAQIDA.



#### ISTIQLOL.

*Jumaniyoz Jabborov.*

Mustaqillik ne demak,  
Ne demakdir istiqlol?  
Buni bilmog‘ing kerak,  
Ma’nosini dilga sol.  
O‘z yurting — yer, samosi,  
Shahri gulshan,— ma’nosi.  
Tongda esgan sabosi,

Tog‘i, bog‘i, daryosi -  
Endi o‘z molu mulking,  
O‘z qo‘lingda o‘z erking.  
Yurting nurga belanib,  
Ko‘ringaydir ko‘zingga.  
Barcha oltin-gavhari,  
Buyursin-a o‘zingga.  
Endi o‘zingga bog‘liq,  
Ne ekib, ne olmog‘ing.  
O‘qib dunyo sirlarin,  
Zarur erur bilmog‘ing.  
Erka farzandsan elga,  
Tezroq ulg‘ay, top kamol,  
G‘ururing solib dilga,  
Senikidir Istiqlol.

### VATAN’ TALQINI.


*Nigora Rasulova.*

Yuragimni yo‘rgakladi baxt,  
Orzularim qochmadi mendan.  
Tongday oppoq hayolga o‘xshab,  
Ko‘zlarimda ulg‘ayding, Vatan!  
Senga qarab olamga boqdim,  
Seni ko‘rib onamga boqdim.  
Yuragimga o‘zing o‘t yoqding,  
Ko‘zlarimda ulg‘ayding, Vatan!

## DO'STLAR, BERING QO'LGA-QO'L!

*Qudrat Hikmat.*

Sharsharalar jo'sh urib,  
Daryo bo'lar qo'shib.  
So'ngra tushib keng izga,  
Aylanishar dengizga.  
Ular yana kengayib,  
Qulochini keng yoyib,  
Okeanga chopishar,  
Qadrdonlar topishar.  
Katta-kichik xalqlar ham  
Daryolardek bo'lsa jam,  
Shunday kueh bo'lar hosil,  
Tengi bo'lmas muttasil.  
Tinchlik doim saqlanar,  
Qasd qilgan majaqlanar.  
Do'stlar, bering qo'lga-qo'l,  
Urushga hech qo'y mang yo'l!



## DO'ST DO'STGA OYNA EKAN.

*Quddus Muhammadiy.*

Erkinjon degan o'g'il  
Maqollar mag'zin nuqul  
Chaqqani chaqqan ekan,  
Chaqishga chaqqon ekan.

Qani, o'ylang ne ekan,  
Do'st do'stga oyna ekan?  
Ma'nosin agar uqsang,  
Bir-biriga ko'z, demak,  
Bir-biriga do'st, demak.  
Do'st bo'lishib o's, demak.  
Agar odam bir-birin  
Bilib insonlik qadrin,  
Qo'llab-quvvatlashmasa,  
Bir-birin anglashmasa  
Hech ishni uddalolmas,  
Maqsadiga yetolmas.  
Do'stlikning sharofati,  
Qo'sh qo'l bo'ldi qanoti.  
Oyga ham olib bordi,  
Fazo olamin oldi.  
Yer, zaminni qamradi,  
Olam ilmin jamladi,  
Olam oila bo'ldi,  
Ko'rakam bir oyna bo'ldi.

### O'QISHNI BILSANG O'ZING.

*Tursunboy Adashboyev.*


Qanday yaxshi, qanday soz,  
O'qishni bilsang o'zing.  
Yordam kutib oyingdan

Jovdirab turmas ko'zing.  
„O'qing“ deya buvingga  
Yolvorib turmay,  
Yoki opajoningga  
Yalinib yurmay,  
Kutib, chorlab  
O'tirmasdan,  
Shart o'qiysan  
Tutilmasdan.

### E'TIROZ.

*Abdurahmon Akbar.*

Hech qolmadi, qolmadi  
Bo'shangliging, Shuhratjon.  
Bu ahvolda hisobni  
O'rganasan-a, qachon?  
Sanoqni-ku uch oyda  
O'zlashtirding qotirib.  
Non kavshash bo'lsa senga  
Murabboga botirib.  
Akasin ta'nasidan  
Yuragi qaynab, toshib,  
Ko'zin pirpiratgancha,  
Shuhratjon so'zlar shoshib:  
— Hisobni-chi, akavoy,  
Bilaman siz kabi zo'r.



Yettidan olsak uchni  
Javobi chiqadi to'rt.  
Uchga ikkini qo'shsak  
Shubhasiz bo'ladi besh.  
Uni qirqdan ayirsak,  
Javob chiqar o'ttiz besh!  
Hangu mang qolib aka  
Pirpiratib ko'zlarin.  
Nahotki shu ukam deb  
Tinglar uning so'zlarin.  
— Misolni, — der Shuhratjon —  
To'gri yecha olaman.  
Bo'shang emas, endi men  
Harakatchan bolaman.  
Yalqovsan deb yoz bo'yi  
Pand o'qigan chog'ingiz,  
Menga hisob, amalni  
O'rgatdi o'rtog'ingiz.

### PAHLAVONNING QO'LLARI.

*Sulton Jabbor.*

Bog'da chuqurcha qazdim,  
Meva ko'chat o'tqazdim.  
Ko'rib yaxsi ishimni  
Bobom xursand edilar.  
Asta silab boshimni

Alpomishim dedilar.  
Ortdi g‘ayrat, quvvatim,  
Yalqovlikni quvladim.  
Yopishaman ketmonga  
Charchog‘imni unutib.  
Navbat yetar oqshomga  
Mazmun to‘la kun o‘tib.  
Bog‘bonlikka yaradim.  
Kaftlarimga qaradim:  
Mehnat qilib qavargan  
Yosh bog‘bonning qo‘llari!  
Shunday chiniqar ekan  
Pahlavonning qo‘llari!

### KELAJAKNING O‘ZISIZ.

*Yusufjon Hamdam.*

Sizlar ona-Vatanning  
Hech so‘nmas chiroqlari.  
Baxti kulgan chamanning  
O‘g‘il-qiz do‘mboqlari.  
Faxrlanar siz bilan  
Xalqimiz kecha-kunduz.  
Ertaga ravshan boqqan  
Ko‘zingiz yorug‘ yulduz.  
Har satrimni yozganda

Bolaligim bo‘lar yod.  
Sizni quvnoq ko‘rganda  
Go‘zal ko‘rinar hayot.  
Kelajakning o‘zisiz,  
Ota ko‘nglin so‘zisiz.  
Baxti balqigan elning  
Erka o‘g‘il-qizisiz.

### YASHNAR OLAM.

*Umarali Qurbon.*

Bog‘ yashnaydi  
Bog‘bon bilan.  
Dala yashnar  
Dehqon bilan.

Uy yashnaydi  
Bola bilan.  
Tog‘ yashnaydi  
Lola bilan

Yashnar, yashnar  
Hamma narsa  
Mehnat, himmat  
Jilo bersa!

Yashnamoqqa  
Oltin ko‘zgu—  
Eng mo’tabar  
Minbardir shu:

Do‘stlik bilan  
Tinchlik bilan  
· Yashnar olam,  
Yashnar Vatan.

# AHD QILGANDIM.

*Narimon Orifjonov.*

Bobom ekkan olmadan  
To'yib-to'yib yeganman.  
Shunda ahd qilib dildan  
Nihol ekay, deganman.  
O'tqazdim turli ko'chat,  
Kelganda kulib bahor.  
Yoz bo'yi qildim mehnat,  
Har kim havas-la boqar.  
Olmam pishar va gulim  
Bo'lar senga poyondoz.  
Ochilib bahri diling  
Orom topsang sen bir oz.  
Maqtamasdan bog'bonni  
Eslab qo'ysang yetadi.  
Axir inson topganin  
Qayga olib ketadi?  
Tug'ildimi shu yerda,  
Shunda qolsin yuragi!  
Eslanmasa bu elda  
Kimga bordir keragi?  
Bobom ekkan olmadan  
To'yib-to'yib yeganman.  
Shuning uchun men dildan  
Nihol ekay, deganman!

## YERU OSMON QO'SHIG'I.

*Temur Ubaydullo.*

Qanday go'zal  
Tonggi chog'lar...  
To'kin-sochin  
Dala, bog'lar.  
Quyosh deydi:  
— Olam kulsin!  
Nurli zamon.  
Tinchlik bo'lsin!

Chehralarda  
Baxt ko'rdim men.  
Dilim jo'shib  
Jo'r bo'l dim men.  
Olam gulga,  
Kuyga to'lsin.  
Tinchlik bo'lsin,  
Tinchlik bo'lsin!

## TILAGIM.

*Yo'ldosh Sulaymon.*

Tinchlik haqida  
Kuylasam qo'shiq,  
Ovozim yangrar  
Yana ham jo'shib!  
Hamma baxtiyor  
Yashasin deyman.

Sursin mehnatin  
Nash'asin deyman.  
Quchoqlar to'lsin  
Hamisha gulga.  
Jaranglab tursin  
Dunyoda kulgu!

## 8- mashg'ulot.

### TO‘G‘RILIK HAQIDA HIKOYALAR.



JAZO.

*Nurxon Raimova.*

Oyisi Otabekka pul berib:

— Do‘kondan non olib kelgin, — debdi.

Otabek g‘izillab ko‘chaga chiqdi-yu, yo‘l chetida muzqaymoq sotayotgan kishini ko‘rib qoldi. Keyin yugurib borib bolalar qatoriga turdi. „Muzqaymoq

olaman. Oyimga bir marta yolg'on gapirsam nima qipti?!...“

Otabek muzqaymoqni maza qilib yedi. Yeyishga yedi-yu, lekin oyisiga nima deb bahona qilishini o'ylab qoldi. Keyin sekin uyga kirdi.

— Oyijon, pulingizni yo'lda tushirib qo'ydim, — dedi.

Ertasi kuni oyisi yana:

— O'g'lim, manavi besh so'mni Nigora xolangga berib kel,— deb qoldi.

— Nega, oyijon?— so'radi Otabek. — Yana yo'qotib qo'ysam-chi?

— Ehtiyyot bo'l, yo'qotmagan,— deya tayinladi oyisi.

Otabek pulni olib ko'chaga chiqdi. Shoshib ketayotgan edi, maktab maydonida to'p o'ynayotgan bolalarga ko'zi tushdi. Ularni bir hayron qoldirgisi keldi. Qo'lidagi pulni oyog'i ostiga tashladi-da:

— Bolalar, men pul topib oldim!— deya qichqira boshladi.

Bolalar yugurib kelishdi. Salim degan novcha bola pulga darhol chang soldi:

— Bu — mening pulim. Tushirib qo'ygan ekanman. — Novcha pulni cho'ntagiga soldi-da, uyiga jo'nab qoldi.

Otabek sarosimada ortiga qaytdi. Darvozadan kira solib oyisiga bo‘lgan voqeani yig‘lab aytib berdi.

Shunda oyisi:

— Yolg‘on gapiradiganlarning jazosi shunaqa bo‘ladi,— dedi xafa bo‘lib.

### MUZQAYMOQ.

*Avaz Mansurov musiqasi,  
Xurshid Qayumov she‘ri.*

Muzday, muzday

Muzqaymoq,

Sutday oppoq, soz qaymoq.

Astagina avaylab,

Chaynamasdan ataylab,

Solganimda og‘zimga

Erib ketar bir zumda.

Muzqaymog‘im hozir ham

Eridi-yu yo‘qoldi.

Lekin totli mazasi

Mening og‘zimda qoldi.

Muzday, muzday

Muzqaymoq,

Sutday oppoq, soz qaymoq.



## CHAVGON.

*Rahmat Azizzo'jayev.*

O'yin qizib turgan paytda Tesha chavgonini sindirib qo'ydi. Guruhi yutqazib turganda, bir alami ikki bo'ldi... Bosh qashlab turib, muyulishdagi o'rindiqda o'tirgan cholga ko'zi tushdi. Boya o'sha yerdan o'tayotganda ham cholning qo'lidagi boshi qayrilgan hassasiga qarab qo'ygan edi. Yugurdi...

— Jon buva, hassangizni berib turing, do'ppim daraxtga ilinib qoldi, keling... — shoshib so'radi Tesha.

Chol koptokni ushslashga shaylangan darvozabon-

dek qiyofada turgan Teshaga tikilib turib, miyig‘ida kularkan, bosh chayqab dedi:

— Salom qani, o‘g‘lim, salomni yedingmi? Avval salom bergen, keyin so‘ragin-da!

— Xo‘p, salom, buvajon! Endi bera qoling!..

— Axir, do‘pping, men buyoqdaman deb cho‘ntagingdan mo‘ralab turibdi-ku.

— Do‘ppimas, buva, haligi...— Tesha sholg‘omday qizarib ketdi,— axir, axir oyimlar sizni juda maqtab yurardilar-ku, yaxshi buva, deb.

— Ha, oying desa debdi, ammo sen yaxshigina mug‘ombir ekansan, yolg‘on so‘zlashga odatlanma!— dedi bobo.

## QUYON BOTIRLAR.

*Abdusaid Ko‘chimov.*

Ikki o‘rtoq borishardi  
Ko‘cha bo‘ylab.

Jasoratdan bir-biriga  
Lof-qof so‘ylab.

— Shunday botir bo‘laylik-ki,—  
Derdil Adham,—  
Qoyil qolsin buni ko‘rgan  
Kattalar ham.

— Ha, Ahmaddek zo'r bo'lamiz,—  
Dedi Turdi  
Va to'satdan yo'l chetida  
Itni ko'rdi.

Botirligi esdan chiqib  
O'sha oni,  
Ura qochdi qo'rqqanidan,  
Chiqib joni.

Adhamning ham boshdan uchib  
Aqlu hushi.

Qochaman deb qoqildi-yu,  
Qulab tushdi.

Kuchuk esa yotar edi  
Hamon mudrab.

Ikki o'rtoq qochishardi  
Sakrab-sakrab.

## MEHMON OSHSA HADDIDAN.

*Hamza Imonberdiyev.*

„Mehmon“ o'yini  
Qizigandan qizir.  
Har gapda „xizmat“,  
„Marhamat“, „uzr“.  
— Ertalab tort, moy  
To'yib yegandim,

Samovardan choy  
Ichsam degandim.  
Ta'zimda Omon:  
— Xo'p bo'lar, mehmon.  
Samovar—Vahob  
„Qaynar“ shu zahot:


— Vaq-vaq-vuq,  
 Bulq-bulq-bulq.  
 Choydan quyilar  
 „Qulq-qulq-qulq“  
 „Mehmon“ o‘yini  
 Qizigandan qizir.  
 Mezbonga qiyin,  
 Mehmonga huzur.  
 — Endi juft qo‘shiq  
 Tinglasam quvnoq,  
 Kuylasa jo‘shib,  
 Tarqasa charchoq.  
 Ta’zimda Omon:  
 — Xo‘p bo‘lar, mehmon.  
 Radio— Vahob  
 Kuylar shu zahot:  
 — Yomg‘ir yog‘aloq,  
 Yam-yashil o‘tloq.

Surbet mehmonga  
 Solsang shapaloq...  
 Mezbon uyalib,  
 So‘raydi uzr,  
 „Mehmon“ o‘yini  
 Qizigandaq qizir.  
 — Topilsa ulov,  
 Sayr etsam birrov.  
 Ta’zimda Omon:  
 — Xo‘p bo‘lar, mehmon.  
 Ot yo‘q, eshak bor,  
 Taqali lekin.  
 Deya Vahobga  
 Boqadi sekin.  
 Vahobning jahli  
 Chiqadi chindan:  
 — Behayo mehmon,  
 Yo‘qol uyimdan!

## NEGA OG‘RIDI?

*Olim Mahkam.*

Ahmadjonlarning uyiga mehmon kelibdi. Unga  
 yong‘oq, shokolad, turli mevalar beribdi. Bola  
 yong‘oqni chaqish uchun bolg‘acha qidirayotganda,  
 kimdir qulog‘iga shivirlabdi:



— Hoy, Ahmadjon, bolg'ani qidirib yurasanmi, tishingda chaqqin-qo'ygin!

— Sen kimsan? — hayron bo'lib so'rabdi bola.

— Nafsingman. Sen bilan o'rtoq bo'lmoqchiman.

— Ortoq bo'lsang, nega tishingda chaqaver, deysan. Tishlarim darz ketadi-ku!

— Tishingda chaqsang pishiq bo'ladi. Tishda chaqmagan — qo'rqoq!

Ahmadjon qo'rmasligini isbotlash uchun yong'oqni qarsillatib chaqibdi.

— Zo'r ekansan! — debdi sevinib nafs. — Endi shokoladni ye!

— Xo‘p.

Shunday qilib, Ahmadjon nafsining aytganini qilaveribdi. Bir kuni u choy ichib o‘tirsa, akasi muzqaymoq ko‘tarib kelib qolibdi.

— Choydan keyin yersan, — debdi muzzxonaga qo‘yayotib u.

Akasi ketgach, nafsi yana shivirlabdi:

— Muzqaymojni paqqos tushirmaysanmi? Boshqalar yeb qo‘yadi-ku?

Ahmadjon shoshib qolibdi. Choyni icha solib, ustidan muzqaymoq yebdi. Bir ozdan so‘ng tishi sirqiray boshlabdi. „Voy, tishim!“ deb yuborganini o‘zi ham bilmay qolibdi. Birpasda lunji shishib ketibdi. Buni ko‘rgan oyisi darrov do‘xtirga yetaklabdi. ..

— Tishlaring ishdan chiqibdi-ku. Kasallanganini olib tashlaymiz,— debdi do‘xtir qo‘liga ombur olib.

Ahmadjon yalina boshlabdi:

— Amakijon, tishimni olib tashlamang.

— Yo‘q, olib tashlaymiz,— so‘zida turib olibdi amaki.— Nafsingni tiymay, tishlaringni asramagansan. Hatto vaqtida yuvmagansan ham.

Ahmadjon tishini oldirayotganida va davolatayotganida rosa qiynalibdi. Shu-shu nafsinи tiyadigan bo‘libdi.

## 9- mashg‘ulot.

ERTAK, HIKOYA TO‘QISHNI O‘RGAN YOKI  
DAVOM ETTIR.



„IZZA — BIR QOSHIQ JIZZA“.

*Yayra Sa'dullayeva.*

Shunday qilib, men Azizvoydan alamimni olmoqchi bo‘ldim. Nega deysizmi? Chunki u hammaning oldida meni chalib qorga yiqitdi! Yana to‘satdan... Bolalar rosa kulishdi. Azizvoyning o‘ziyam xuddi Nasriddin Afandini tomosha qilayotgandek osmonga qarab

„Yana bir dumalatsam, Qorbobo bo‘lib qolasan, Irisvoy“, — deydi. Qorni dumaloqlab, ochiq turgan og‘ziga qopqoq qilib qo‘ymoqchi bo‘ldim-u, kel, qo‘y, dedim. Qorni qoqib, yuraman desam, yana chalib yubordi. Bolalar battarroq qiyqirishdi. Endiyam qarab turarmidim? Shoshma, dedim o‘zimga o‘zim. Sumkamni yerga qo‘yib, endi unga yopishaman desam... Bolalar „Biringga arpa, biringga bug‘doy“ deyish o‘rniga jimb qolishdi. Qarasam, to‘g‘ridan o‘qituvchimiz kelayapti...

Meni birov xafa qildimi, tamom, alamimni olmasam bo‘lmaydi. Lekin bu gal alamim „ichimda“ qoldi. Nima qilsam ekan. Shunday qilayki, Azizvoy hammaning oldida izza bo‘lsin. Bir men ham „Izza-izza — bir qoshiq jizza“ deb maza qilay. Yaxshisi, sumkasiga qor solib qo‘yaman... Yo‘q, bo‘lmaydi. Kitob maktabniki-ku, ivib ketadi. Yaxshisi... urre, topdim!!!

Ertasiga ertalab, uydan yelim olvoldim. Azizvoy oyna tomonda o‘tiradi. Sheriklari partaga u tomonga o‘tmaydi. Shuning uchun ham o‘tiradigan joyiga bemaol ancha-muncha yelim quydim. Kam quysam, qurib qoladi-da! Azizvoy keyingi vaqtda qo‘ng‘iroq chalinishiga zo‘rg‘a yetib keladi. U keladi-yu, ketidan ustoz.

Bugun negadir... kelmasa-ya? Joyiga boshqa bola

o‘tirsa-ya? Unda nima bo‘ladi? Ana, qo‘ng‘iroq chalindi. Hayriyat! Ana, qadam tovushi eshitildi. Hozir hovliqib kiradi. Kiradi-yu, partasiga o‘tiradi. Birinchi soat— matematika. Ustoz: „G‘oziyev—doskaga!“ deydilar. Azizvoy o‘rnidan turaman deb, turolmaydi. Chunki u partaga yopishib qolgan bo‘ladi. Hamma kulib yuboradi. Azizvoy jovdirab qoladi. Men ham maza qilib kulaman-ey-kulaman...

## QOR YOG‘AR.

*Salim Ashurov.*

Zavq ularshib,  
Ko‘z qamashib,  
Yog‘ar pag‘a-pag‘a qor.  
Har bir uchqun  
To‘qlik uchun  
Sepin yoyar har nahor.  
Oppoq dala,  
Go‘zal palla,  
Zavq bag‘ishlar insonga.  
O‘ynab uchib,  
Yerni quchib,  
Baxt keltirar dehqonga!

## 10- mashg'ulot.

### ALISHER NAVOIY HAQIDA HIKOYALAR.



#### ALISHER BILAN BULBUL.

*O'zbek xalq rivoyatlaridan.*

Ilgari zamonda G'iyosiddin Kichkina degan kishining Alisher ismli o'g'li bo'lgan ekan. U yoshligidanoq uddaburro, ziyrak bo'lib o'sibdi. To'qqiz yoshga to'lganda esa she'rlar yoza boshlabdi. Odamlar u yozgan she'rlarni qulqoq berib tinglaydigan bo'lishibdi. Lekin bola o'ziga hali taxallus tanlamagan ekan.

Alisher bir kuni yangi she'rini yozibdi-da, uni bog'ga chiqib, baland ovoz bilan o'qiy boshlabdi. Shu payt bog'dagi terakka chirmashgan qirq og'aynining shoxida o'tirgan bulbul Alisherning yoqimli ovozini eshitib qolibdi. Yosh shoirning goh qo'ng'iroqday jarangdor, goh tong shamoliday mayin ovozi bulbulni o'ziga maftun etibdi. Qushcha darhol uning yelkasiga qo'nib: — Ey, xushovoz shoir, sen o'qigan she'rlar bulbullarning erta tongdagi navosidan ham yoqimli ekan. Nomingni bilsam bo'ladimi? — debdi.

— Alisher! — deb javob beribdi bola.

— Bildim, yangi chiqqan shoir ekansan-da. Endi o'zingga chiroyli bir taxallus tanlab, she'rlaringning oxiriga o'shani qo'shib ketgin.

Alisherga bulbulning boyagi „navo“ degan so‘zi yoqib qolibdi. Shundan keyin yozgan g'azallarining tagiga „Navoiy“ deb yozib qo'yadigan bo'llibdi.

## OQILONA JAVOB.

*Rivoyat.*

Alisher Navoiy Xuroson hokimi Husayn Boyqaro saroyida bosh vazir ekan. Podsho hamma vaqt Navoiyning maslahatlariga qulqolar edi.

Kunlardan bir kuni Husayn Boyqaro ertalab saroyga kirish oldidan Navoiyga ko'rinish beribdi-da,

ko'rsatkich barmog'i bilan boshini ko'rsatibdi. Navoiy ham xuddi o'sha barmog'i bilan tilini ko'rsatibdi.

Husayn Boyqaro boshini chayqabdi-da, saroyga kirmay, iziga qaytibdi.

Voqeani kuzatib turgan Navoiyning shogirdlari bu imo-ishoralarning sababini so'rashibdi. Navoiy bu jumboqni yechishni ularning o'zlariga havola qilibdi. Shogirdlar o'ylab-o'ylab topisholmabdi. Shogirdlar-dan biri Navoiyni gapga solish maqsadida siyohdonni ag'darib yuboribdi. Shunda Navoiy:

— Abdullatif, xayolingiz nega buncha parishon bo'lib qoldi? Siyohdon ag'darildi-ku,— debdi.

— Kechiring, ustoz,— uzr so'rabi Abdullatif,— haligi muammoning sababini o'ylab...

Navoiy boyagi imo-ishora ma'nosini aytishga majbur bo'libdi:

— Husayn „Boshga baloni nima keltiradi?“ deb so'rabi edi, „Til“, deb javob qildim.

Shogirdlari Navoiyning ziyrakligiga 'qoyil qolishibdi.

## ZIYRAK YIGIT.

*Mir Alisher Navoiyning yaqin do'sti,  
shoir mavlono Sohib Doro hikoyatlaridan.*

Hijriy 903 (melodiy 1497) yili Hirot shahrida o'g'ri va bezorilar ko'paydi, xalqning tinchligi buzildi. Har kecha biron falokat yuz berardi.

Oqibat sulton Husayn Mirzo jiddiy chora ko‘rishga majbur bo‘ldi: „Har bir mahalla ahli o‘z mahallasidagi o‘g‘ri va bezorilikda shubha qilinganlarni tutib keltirsin. Ularni yashirgan mahallaga jazo beriladi“, — deb farmon chiqardi. Har qaysi mahalla ahli o‘g‘rilikda gumon qilinganlarni tutib keltira boshlabdi.

Qozikalonlar keltirilganlarni tekshirmay jazolar edilar. Shubha qilinganlar orasida begunohlar ham bo‘lib, xalq orasida norozilik kuchaydi. Shundan so‘ng sulton Husayn Mirzo: „Ayblanganlar yaxshilab tekshirilsin“, — deb farmon chiqardi va tekshirish ishini Alisherga topshirdi.

Nosir ismli bir yigit bo‘lib, bezorilikda uning oldiga tushadiganlar yo‘q edi. Alisherning huzuriga ikkinchi bor uni tutib keltirishdi.

— Hali ham bezorilikdan qaytmadingmi? · Endi senga og‘ir jazo beramiz,— dedi Alisher.

— Ulug‘ amir, og‘ir jazo berish faqat zolimlarning qo‘lidan keladi. Sizning oljanob, marmamatli va shafqatli bir zot ekaningizni bilaman,— dedi Nosir.

Alisher uning ziyrakligiga qoyil qoldi-da, tanbeh berib, ozod qildi.

Bir hafta o‘tib uni yana tutib keltirdilar. G‘iyos degan mulla Alisherning yonida turgan edi.

— Endi bu bezorini dam berib o'ldirish lozim,— dedi mulla.

— Ey, G'iyoS, dam berib odam o'ldirish tajribasini sizdan boshlash kerak, chunki siz bu tajribaga mendan ko'ra loyiqroqsiz, — deb yubordi Nosir.

Mir Alisher yigitni bu gal ham ozod qildi. Oradan o'n kun o'tdi. Nosirni bezorilikda ayblashib yana Alisherning qoshiga keltirishdi. Alisher achchig'lanib dedi:

— Endi haddingdan oshding, yetar, jazoyingni olgaysan.

— Ey, shafqatli amir! Mening ota-onam yo'q, g'aribman. Siz yetimlarga jabr qilmang degan oyatga amal qilsangiz, Qur'oni sharifga e'tiqodingiz bo'lsa, meni ozod qiling,— dedi ma'yus holda Nosir.

Alisher Nosirni o'z tarbiyasiga oldi. Mavlono Alisherning layoqatli shogirdlaridan biri ham, xalqning hurmatiga sazovor bo'lgan ham Nosirdir.

## GUL VA NAVRO'Z.

*Tamilla Qosimova.*

Yosh Alisher bog'dagi shoxsupada o'tirib she'r mashq qilardi. Ukasi Darveshali uning yoniga keldi. Alisher qog'ozdan bosh ko'tarib, ukasiga:

— Keling inim, — dedi.

Darveshali akasining yoniga o'tirar ekan, devor

tomonga imladi. Alisher o'sha tomonga qaradi. U yerda hech kim ko'rinmas, ammo devor ortidan ud jo'rligida forsiy qo'shiq taralar edi.

— Bilasizmu, inim, forsiy g'azallar qanchalik go'zal bo'lmasun, men turkiy g'azallarni yoqtiramen. Ayniqsa, Mavlono Lutfiy g'azallari joni dilim. Ul zotning „Gul va Navro'z“ dostonlarini men yoddin bilurmen.

— Og'o, axir sizga padari buzrukvorimiz „Mantiq ut-tayr“ dek kutoblarni o'qishni man etgan erdilar-ku!

Alisher kulimsirab jajji qo'llari bilan ukasining yelkasiga qoqib qo'ydi.

— Kecha domlamiz saboq paytida „Gul va Navro'z“ni o'qib o'tirganimni ko'rib qoldilar. Saboqni so'ragan edilar, hammasini aytib berdim. Hayrat bilan menga tikildilar-da: „Yo, olloh, o'zing asra panohingda“, — deb qo'ydilar. Koyimadilar.

Darveshali ko'zlari poriab akasiga tikilib turar ekan, Alisher labiga barmog'ini bosdi-da, ketimdan yur, degandek ichkari hovliga boshladi. To'g'ri o'z xonasiga emas, omborxonaga yetaklab kirdi. Keyin Alisher katta xumga qo'l tiqib, chorsiga o'ralgan bir narsani oldi. Chorsini ochib ichidagi kitobni Darveshaliga ko'rsatdi:

— „Gul va Navro'z“, og'o, bu qanday doston?